65. [50; 200] kesmada 3 ga bo'linganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'linganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'linganda qoldiq 3 ga va 6 ga bo'linganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) *1* B) *2* C) *0* D) *3*

66. Agar $|x-2|=\frac{x}{2}+a$ tenglama bitta yechimga ega bo'lsa, a ning qiymatini toping.

A) *-3* B) *-2* C) *-1* D) *2*

67. Quyidagilardan qaysi biri axborot ko'rinishi hisoblanadi?

A) *karrali, dolzarb* B) *grafikli, tovushli*
C) *uzlukli, uzluksiz* D) *tushunarli, ishonchli*

68. 761, 138, 268, 147 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

A) *1436* B) *1314* C) *11A2* D) *1560*

69. Qanday dastur Operatsion sistema (tizim)ni faollashtiradi?

A) *BIOS* B) *Boot Record* C) *Total Commander*
D) *Command.com*

70. MS Excel dasturida formulaning natijasini aniqlang:
$A1=-12;\ B1=15;\ =ABS(A1)+B1*\text{ЗНАК}(A1)$

A) *-27* B) *27* C) *3* D) *-3*

71. Qanday xizmatlar Internet orqali ikki kishining o'zaro yuzma-yuz ovozli suhbatini amalga oshirish imkonini beradi?

A) *PHP, ICQ, chat* B) *Skype, ICQ, Mail.ru Agent*
C) *Mapple, Skype, ICQ*
D) *Outlook Express, Mail.ru Agent, ICQ*

72. Paskal tilida quyidagi dastur lavhasi bajarilgach S o'zgaruvchi qiymatini aniqlang:
A:= '12345'; S:=0; IF Pos('34',A)>0 Then begin Delete(A,2,2);S:= Pos('34',A); end Else Write(S);

A) *0* B) *3* C) *34* D) *4*

108-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. Agar $f(x) = 3^x \cdot x$ bo'lsa, $f'(x) > 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty; -\log_3 e)$ B) $(-\log_3 e; \infty)$ C) $(-2\log_3 e; \infty)$ D) $(-\log_3 e; e)$

38. $y = f(x)$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = f(x-a) + b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a; -b)$ B) $N(a; b)$ C) $N(a; -b)$ D) $N(-a; b)$

39. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki AD=21, DC=23 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar BD to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) *1* C) *2* D) $\sqrt{2}$

40. Bir savat olma 20000 so'm, bir savat nok 30000 so'm, bir savat olxo'ri 40000 so'm turadi. Sakkiz savat mevaning bahosi 230000 so'm bo'lsa, ulardan eng ko'pi bilan nechtasida olxo'ri bo'lishi mumkin?

A) *1* B) *2* C) *3* D) *4*

41. Parallelepipedning asoslari tomoni 2 ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallelepipedning hajmini toping.

A) $4\sqrt{2}$ B) *6* C) *8* D) $2\sqrt{2}$

42. $y = \cos 2x$; $y = 0$; $x = -\frac{\pi}{6}$; $x = \frac{\pi}{3}$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) *1* C) *0,5* D) $\frac{\sqrt{3}}{4}$

43. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y = f(x)$ funksiya maksimum nuqtalarini toping.



A) $-1; 1$ B) $-2; \frac{1}{2}$ C) $-3; 0; 3$ D) $-3; -1; 0; 1; 3$

44. Sharga asosining tomoni $5\sqrt{2}$ ga, balandligi 5 ga teng bo'lgan muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Shar radiusini toping.

A) *10* B) *5* C) *2,5* D) *2,25*

45. [200; 700] kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) *4* B) *3* C) *2* D) *1*

46. Rasmda $y = a + \frac{b}{x+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $bc - a > 0$ B) $a^2 + bc < 0$ C) $ac = 0$ D) $a^4 - bc > 0$

47. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1; 0)$, $B(1; y)$, $C(4; y)$ va $D(6; 0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *2* B) *y ga bog'liq* C) *1* D) $\sqrt{2}$

48. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 5 ga teng bo'lsa, $a + 2b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nechaga teng?

A) *4* B) *1* C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) *5*

49. ABC uchburchakning BC tomoniga AD to'g'ri chiziq shunday o'tkazilganki, natijada AC asosli teng yonli ADC uchburchak hosil bo'lgan. Agar ABC va ABD uchburchaklar perimetrlari mos ravishda 47 va 33 ga teng bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.

A) *11* B) *14* C) *12* D) *13*

108-variant

50 $\cos(2\operatorname{arctg}2)$ ni hisoblang.

A) 0,6 B) 0,25 C) −0,6 D) −0,4

51 $a=5$ bo'lsa, $\int_a^{a+1}(ln(\sin^2 2x+\cos^2 2x)+1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $2\sqrt{2}$ B) $\sqrt{2}$ C) 1 D) $\frac{\ln 2-1}{2}$

52. $4-x<\sqrt{6-x}$ tengsizlikning yechimlaridan iborat bo'lgan eng kichik natural sonni toping.

A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

53. $5\cdot 0,2^{\lg x}>0,04^{\lg 2}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi eng katta va eng kichik natural sonlar nisbatini toping.

A) 39 B) 20 C) 40 D) 18,5

54. $|x^2+2x-8|=3a$ tenglama 4 ta haqiqiy yechimga ega bo'ladigan a ning barcha natural qiymatlari yig'indisini toping.

A) 3 B) 1 C) 2 D) 6

55. Agar barcha x, y lar uchun $x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$ ayniyat bajarilsa, $c+d$ ni toping. $(c>1)$

A) −4 B) 3 C) −2 D) −1

56. Hisoblang: $\operatorname{ctg}^2\left(arcsin\frac{1}{\sqrt{5}}\right)-5$

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{2}$ C) $-\frac{2}{3}$ D) −1

57. Hisoblang: $\log_3\left(\sqrt[3]{3\cdot\sqrt[4]{9\cdot\sqrt{27}}}\right)+\log_3\left(\sqrt{3\sqrt[3]{27\cdot\sqrt[4]{9}}}\right)$

A) $\frac{41}{24}$ B) $\frac{32}{21}$ C) $\frac{37}{12}$ D) $\frac{35}{12}$

58. Kichik asosi 4 ga teng bo'lgan teng yonli trapetsiyaga radiusi 4 ga teng bo'lgan aylana ichki chizilgan. Trapetsiyaning yuzini toping.

A) 54 B) 48 C) 96 D) 80

59. $a_1, a_2, ..., a_8$ ketma-ketlikda ixtiyoriy uchta ketma-ket hadining yig'indisi 50 ga teng. Agar ketma-ketlikning uchinchi hadi 9 ga teng bo'lsa, birinchi va sakkizinchi hadlarining yig'indisi nechaga teng?

A) 48 B) 18 C) 41 D) 9

60. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan bissektrisa uzunligini toping.

A) $l_b=\frac{b}{a+b}\sqrt{ab+2b^2}$ B) $l_b=\frac{a}{a+b}\sqrt{ab+2b^2}$

C) $l_b=\frac{b}{a+b}\sqrt{2a^2+ab}$ D) $l_b=\frac{a}{a+b}\sqrt{2a^2+ab}$

61. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;-4)$, $C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $3\sqrt{2}$ B) 4 C) 3 D) $2\sqrt{3}$

62. Tenglamani yeching: $1=2sin\left(4x+\frac{\pi}{6}\right)$

A) $\frac{\pi}{24}+\frac{\pi k}{4};\ k\in Z$

B) $(-1)^k\frac{\pi}{6}-\frac{\pi}{6}+\pi k;\ k\in Z$

C) $(-1)^k\frac{\pi}{2}+\frac{\pi}{24}+\pi k;\ k\in Z$

D) $(-1)^k\frac{\pi}{24}-\frac{\pi}{24}+\frac{\pi k}{4};\ k\in Z$

63. 5 ta elementli to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) 5 B) 16 C) 32 D) 10

64. $7^{\sin^2 x}+7^{\cos^2 x}=8$ tenglamaning $[0;2\pi]$ kesmadagi ildizlari yig'indisini toping.

A) 630° B) 900° C) 360° D) 270°

65. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2+46y=y^2+46x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ ni toping.

A) 46 B) 0 C) 24 D) 23

66. $y=3\sin(2x+\frac{\pi}{4})$ funksiya nechta butun qiymatlarni qabul qiladi?

A) cheksiz ko'p B) 0 C) 7 D) 6

67. Eng kichik axborot uzatish birligini ko'rsating.

A) belgi B) bod C) bit D) bayt

68. Quyidagi mantiqiy tenglamaning yechimlari sonini aniqlang: $\neg A\wedge\neg B\vee C=$ yolg'on

A) 4 B) 1 C) 5 D) 3

69. Qaysi javobda faqat arxivlangan fayllar kengaytmasi berilgan?

A) .zip, .jpg, .rar B) .awi, .com, .bac C) .htm, .arj, .txt
D) .zip, .rar, .arj

70. A1=−3, B1=8, B2=2 bo'lsin. Quyidagi formula natijasi 1 ga teng bo'lishi uchun A2 katakka kiritilishi kerak bo'lgan qiymatni aniqlang.
=ЕСЛИ(И(A1+B2<=A2*B1;A1*B1<>0); A1+B2+B1−A2;A1*B1+B2+A2)

A) 6 B) 4 C) 8 D) 3

71. Web brauzerda matnning ko'rinishi quyidagicha bo'lishi uchun uning HTML kodi qanday bo'lishi kerak?
Bikvadrat tenglama $ax^4+bx^2+c=0$ ko'rinishida bo'ladi.

A) <cite>Bikvadrat tenglama ax ⁴ +bx² +c=0 ko'rinishida bo'ladi.</cite>

B) Bikvadrat tenglama ax ⁴ +bx² +c=0 ko'rinishida bo'ladi.

C) Bikvadrat tenglama ax ⁴ +bx² +c=0 ko'rinishida bo'ladi.

D) Bikvadrat tenglama ax⁴ +bx² +c=0 ko'rinishida bo'ladi.

72. Paskal tilining quyidagi takrorlash operatoridagi takrorlanishlar sonini aniqlang:
For i:=2016 downto 2000 do write('talaba');

A) 18 B) 17 C) 0 D) 16

109-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. $ABCD$ to'rtburchakning har bir tomoni chizmada ko'rsatilgandek o'z uzunligiga teng uzunlikda davom ettirilgan. Agar $A'B'C'D'$ to'rtburchak yuzasi 15 ga teng bo'lsa, $ABCD$ to'rtburchak yuzasini toping.



A) 4 B) 4,5 C) 5 D) 3

38. Agar $\operatorname{tg}\alpha = \frac{1}{2}$ bo'lsa, $\frac{4\sin 4\alpha \cdot \cos 2\alpha}{(1-\cos 2\alpha)(1+\cos 4\alpha)}$ ni hisoblang.

A) 4 B) 8 C) -4 D) 2

39. $\log_2(2^x - 1) \cdot \log_2(2^{x+2} - 4) = -1$ tenglamani yeching.

A) $x = \log_2 3 - 1$ B) $x = \log_2 3 + 1$ C) $x = \log_2 9$
D) $x = \log_2 12$

40. $y = \log_2(\operatorname{arctg} 2x + \operatorname{arcctg} 2x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi ikkinchi tartibli hosilasining qiymatini toping.

A) $\log_2 3$ B) $-\log_2 2$ C) 0 D) 1

41. Kvadratga ikkita aylana ichki chizilgan. Radiusi 2 ga teng bo'lgan birinchi aylana kvadratning ikkita qo'shni tomonlariga urinadi, radiusi 6 ga teng bo'lgan ikkinchi aylana kvadratning qolgan ikkita tomoni va birinchi aylanaga urinadi. Kvadratning tomonini toping.

A) $4(\sqrt{2}-1)$ B) $4(\sqrt{2}+2)$ C) $2,5(\sqrt{2}+1)$
D) $2(\sqrt{2}+1)$

42. Arifmetik progressiyani tashkil etuvchi hadlari $\begin{cases} a_2^2 = a_8 \\ a_6 - a_3 = 36 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini qanoatlantirsa, a_2 ning musbat qiymatini toping.

A) 10 B) 8 C) 11 D) 9

43. $a = -5$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (\sin^2 2x + \cos^2 2x)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $\sqrt{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}-1}{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) 1

44. Rasmda $y = a + \frac{2}{bx+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $b - c + a > 0$ B) $a^3 - b^2 < 0$ C) $c - b > 0$
D) $bc + ab^2 < 0$

45. ABC uchburchakning BC tomoniga AD to'g'ri chiziq shunday o'tkazilganki, natijada AC asosli teng yonli ADC uchburchak hosil bo'lgan. Agar ABC va ABD uchburchaklar perimetrlari mos ravishda 42 va 27 ga teng bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.

A) 15 B) 11 C) 14 D) 12

46. Sonning 8 foizi 40 foizining necha foizini tashkil qiladi?

A) 5 B) 15 C) 25 D) 20

47. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-4;0)$, $C(0;-4)$. O'tkir burchaklar medianalari orasidagi o'tmas burchak kosinusini toping.

A) $-\frac{5}{7}$ B) $-\frac{4}{7}$ C) $-\frac{3}{5}$ D) $-\frac{4}{5}$

48. $[0;\ 500]$ kesmada 3 ga bo'linganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'linganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'linganda qoldiq 3 ga va 6 ga bo'linganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 5 B) C) 6 D) 7

49. $\alpha + \beta + \gamma = \pi$, $\sin\frac{\alpha}{2}\sin\frac{\beta}{2}\sin\frac{\gamma}{2} = -\frac{1}{4}$ bo'lsa, $\cos\alpha + \cos\beta + \cos\gamma$ ning qiymatini toping.

A) -1 B) 0 C) 2 D) 1

50. $\{x | x \in N, 2 \le x^2 \le 33\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) 5 B) 16 C) 32 D) 33

51. $\log_{0,5}(4^x - 5 \cdot 2^x + 6) \ge -1$ tengsizlikni qanoatlantiradigan barcha butun sonlar yig'indisini toping.

A) 0 B) 4 C) -1 D) 2

52. a va b natural sonlarning umumiy bo'luvchilari soni 5 ga teng bo'lsa, $a + 2b$ va b sonlarning umumiy bo'luvchilari nechta?

A) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* B) 5 C) 4 D) 1

53. R radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchak 45° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) $4R^2$ B) $2R^2$ C) $3R^2$ D) $2R^2\sqrt{2}$

109-variant

Rasmga qarab noto'g'ri tasdiqni aniqlang.



A) *AB kesma uzunligi CD kesma uzunligidan katta*
B) *AB – aylana diametri*
C) *CD kesma uzunligi AB kesma uzunligidan katta*
D) *AB va CD to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi, markazi O nuqtada bo'lgan doira tashqarisida joylashgan*

5. Agar $y = -2x^2 - ax + b$ parabola (-3; 5) va (-1; 5) nuqtalardan o'tsa, a va b ni toping.
A) $a = 8, b = -1$ B) $a = 3, b = -4$ C) $a = -3, b = -4$
D) $a = -4, b = 4$

6. $\left|\frac{x^2 - 5x + 4}{x^2 - 4}\right| \le 1$ tengsizlikni nechta tub son qanoatlantirmaydi?
A) *1* B) *3* C) *0* D) *2*

7. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y = f(x)$ funksiya grafigiga $x_0 = 2$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyentini toping.



A) 0 B) −1 C) 1 D) 3

8. Asoslarining radiuslari 5 va 6 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.
A) $\sqrt{29}$ B) $\sqrt{30\frac{1}{3}}$ C) $\sqrt{30\frac{2}{3}}$ D) $\sqrt{31}$

9. $y = \ln x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = \ln(x + a) - b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi? Bunda, $x > -a$, $x > 0$
A) $N(-a; -b)$ B) $N(a; b)$ C) $N(-a; b)$ D) $N(a; -b)$

10. $x^3 - (\sqrt{6} + 1)x^2 + 6$ ko'phadni ko'paytuvchilarga ajrating.
A) $(x + \sqrt{6})(x^2 + x + \sqrt{6})$ B) $(x + \sqrt{6})(x^2 - x + \sqrt{6})$
C) $(x - \sqrt{6})(x^2 - x - \sqrt{6})$ D) $(x - \sqrt{6})(x^2 + x - \sqrt{6})$

11. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 - 46x = y^2 - 46y$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.
A) *23* B) *24* C) *46* D) *0*

12. $|x - 2| = 3 - |x + 1|$ tenglamani yeching.
A) $[-2; 2]$ B) $(-\infty; -1] \cup [2; +\infty)$ C) $[-1; 1]$
D) $[-1; 2]$

13. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0; 0)$, $B(-1; -1)$, $C(-2; 0)$. Uchburchak yuzini toping.
A) *2* B) $\sqrt{3}$ C) $\sqrt{2}$ D) *1*

14. Ushbu $f(x) = \frac{2x + 1}{x^2 + x - 12}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.
A) $\ln(x - 3) + C$ B) $\ln|x + 4| + C$
C) $\frac{2x^2}{(x - 3)(x + 4)} + C$ D) $\ln(|x - 3| \cdot |x + 4|) + C$

15. $3^{(-2^x)} = 2$ tenglamani yeching.
A) $\emptyset$ B) $\log_2 \log_3 \frac{1}{2}$ C) $\log_3 \log_2 3$ D) $\log_2 \log_3 2$

16. Hisoblang: $\log_5 \frac{7 \cdot 3^{n+1} - 8 \cdot 3^{n-1}}{3^n + 8 \cdot 3^{n-1}}$
A) *0* B) $\log_5 2$ C) *-1* D) *1*

17. 1 Mbayt necha Kbitni tashkil qiladi?
A) *1000 kbit* B) *10240 kbit* C) *1240 kbit* D) *1024 kbit*

18. *D*095, 209*A* butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini hisoblang va natijani o'nlik sanoq sistemasida tasvirlang.
A) *33204* B) *41427* C) *61743* D) *50910*

19. ... – bu kompyuter va uning qurilmalari ishini boshqaruvchi foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etuvchi dasturdir.
A) *Utilitlar* B) *Operatsion tizim (sistema)*
C) *Drayverlar* D) *Antiviruslar*

20. *A*1=−8, *A*2=−1, *B*1=8, *B*2=5 bo'lsin. Natijasi -11 ga teng bo'ladigan formulani aniqlang.
A) = ЦЕЛОЕ(*A*1/*B*2) + *A*2 − *B*1
B) = СУММ(−*A*1 + *B*2; *A*2 + *B*1)
C) = ЕСЛИ(*A*1 + 2 > *B*1 − 1; *B*2; *A*2)
D) = СРЗНАЧ(*A*1 : *B*2) ∗ *A*1

21. Brauzerda "x^3" yozuvini aks ettirish uchun teglar to'g'ri berilgan javobni ko'rsating.
A) *x³* B) *x<u>3</u>* C) *x3*
D) *x₃*

22. Quyidagi Paskal dasturi lavhasi har qanday a, b va c qiymatda ham ma'lumotlarni chiqarish protsedurasi izohiga mos keladigan javob chiqarishi uchun ∗ o'rniga yozilishi kerak bo'lgan shartni aniqlang:
Readln(a,b,c); max:=a; If max<b Then max:=b;
If ∗ Then max:=c;
WriteLn('Berilgan uchta sondan kattasi= ',max);
A) *c>max* B) *c<b* C) *c>b;* D) *max>c;*

110-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. a ning qanday qiymatida $(a-1)x^2+(2a+2)x+a-2=0$ kvadrat tenglama ikkita o'zaro teng ildizga ega bo'ladi?
A) 0,2 B) 1 C) 0 D) 0,5

38. $\{x|x\in N, -6<x<5\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?
A) *32* B) *11* C) *4* D) *16*

39. $k\in N$ da $S_k=x^k+y^k$ darajali yig'indi, $\sigma_1=x+y$, $\sigma_2=xy$ bo'lsa, u holda quyidagi qaysi munosabat doim o'rinli?
A) $S_4=S_3\sigma_2+S_2\sigma_1$ B) $S_4=S_3\sigma_2-S_2\sigma_1$
C) $S_4=S_3\sigma_1+S_2\sigma_2$ D) $S_4=S_3\sigma_1-S_2\sigma_2$

40. $a=(0,2)^{\frac{1}{2}\log_5\sqrt{2}-\log_{25}2}$ bo'lsa, $\log_2 a$ ni hisoblang.
A) *1* B) *0,25* C) *0,5* D) $\log_2 5$

41. $\lg^2 x^2=4$ tenglamaning barcha manfiy ildizlari yig'indisini toping.
A) $-10,1$ B) -10 C) $-10,01$ D) -100

42. Hisoblang: $\cos 50^\circ\cdot\cos 10^\circ\cdot\cos 110^\circ$.
A) *1* B) $\frac{1}{8}$ C) $-\frac{\sqrt{3}}{8}$ D) -1

43. Rasmda $y=a+\frac{2}{bx+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli?



A) $ac<0$ B) $bc+a<0$ C) $bc-a^2<0$ D) $ab+c<0$

44. $\left(\left(\sqrt[5]{7^3}\right)^{\frac{x}{4}}-\sqrt{\frac{x}{3}}\right)^{\frac{x}{4}+\sqrt{\frac{x}{3}}}=\sqrt[4]{7^7}$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
A) *10* B) *9* C) *1* D) *16*

45. Asoslarining radiuslari 6 va 7 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.
A) $\sqrt{42\frac{2}{3}}$ B) $\sqrt{42\frac{1}{3}}$ C) $\sqrt{37}$ D) $\sqrt{41}$

46. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;3)$, $C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.
A) *3* B) $2\sqrt{3}$ C) $2\sqrt{2}$ D) *2*

47. ABC o'tkir burchakli uchburchak berilgan. Uchburchakning BC tomonini C uchidan boshlab hisoblanganda 1:2 nisbatda bo'luvchi AN to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Agar ANC uchburchakning yuzi 2 ga teng bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.
A) *3* B) *9* C) *4* D) *6*

48. $a=1$ bo'lsa, $\int_a^{a+1}(ln(\sin^2 3x+\cos^2 3x)+1)dx$ aniq integralni hisoblang.
A) *1* B) $\sqrt{2}$ C) $\frac{\ln 2-1}{3}$ D) $2\sqrt{2}$

49. To'g'ri burchakli ABC uchburchakning C to'g'ri burchagini CH balandlik va CM mediana teng uch qismga bo'ladi. Agar CHM uchburchak yuzasi 5 ga teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzasini toping.
A) $20\sqrt{3}$ B) *15* C) *20* D) $16\sqrt{3}$

50. $\log_{3,5}\left(\sqrt{2x+3}-x\right)>0$ tengsizlikni yeching.
A) $[0;2)$ B) $[-1,5;\sqrt{2})$ C) $[3;5)$ D) $(0;2)$

51. Agar barcha x, y lar uchun $x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$ ayniyat bajarilsa, a ni toping. $(c>1)$
A) *2* B) *−3* C) *−7* D) *4*

52. $y=7cos5x-5cos7x$ funksiyaning hosilasini toping.
A) $70cosx\cdot cos6x$ B) $70sinx\cdot cos6x$ C) $-70cosx\cdot sin6x$
D) $70sinx\cdot sin6x$

110-variant

Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan mediana uzunligini toping.

A) $m_b = \frac{a}{2}\sqrt{a^2+2b^2}$ B) $m_b = \frac{1}{2}\sqrt{2a^2+b^2}$

C) $m_b = \frac{a}{2}\sqrt{2a^2+b^2}$ D) $m_b = \frac{1}{2}\sqrt{a^2+2b^2}$

54. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2+24y = y^2+24x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ ni toping.

A) *12* B) *24* C) *34* D) *0*

55. $y = \log_7(\sin^2 3x + \cos^2 3x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi ikkinchi tartibli hosilasining qiymatini toping.

A) *1* B) $\log_7 2$ C) $-\log_7 2$ D) *0*

56. Poyezd 3 minutda 6 kilometr masofani, motosikl 4 minutda 6 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) *87%* B) *70%* C) *75%* D) *73%*

57. $\int_0^1 \frac{3x}{3x+1}dx$ integralni hisoblang.

A) *3* B) $\ln\frac{e}{\sqrt[3]{4}}$ C) $\ln\frac{e}{2}$ D) $\ln 4e$

58. Agar $a = 2-\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, $\sqrt{12}$ ni a orqali ifodalang.

A) $4-2a$ B) $4+2a$ C) $10-a$ D) $2+a$

59. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arifmetik progressiyani tashkil qiladi. $4a_1+a_3$ ni toping.

A) *37* B) *29* C) *34* D) *39*

60. $\log_{\frac{1}{9}}\log_{\frac{1}{4}}\frac{x+4}{2x-1} < 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan eng kichik va eng katta butun sonlar ayirmasini toping.

A) -4 B) *0* C) -2 D) -3

61. $y = \log_5\left(\operatorname{arctg} x + \operatorname{arcctg} x - \frac{\pi}{2} + 1\right)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi qiymatini hisoblang.

A) *0* B) $\log_5 2$ C) *1* D) $-\log_5 2$

62. Soddalashtiring: $\sqrt{22+12\sqrt{2}} + \frac{2\sqrt{2}-1}{\sqrt{2}+1}$

A) $7+\sqrt{2}$ B) *9* C) *7* D) $9+\sqrt{2}$

63. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1;0)$, $B(1;y)$, $C(-8;y)$ va $D(-10;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *1* B) *2* C) $\sqrt{2}$ D) *y ga bog'liq*

64. To'g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasiga tushirilgan balandligi 4 ga, to'g'ri burchak bissektrisasi 5 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.

A) $57\frac{1}{7}$ B) $42\frac{1}{7}$ C) *28* D) *52*

65. $y = f(x)$ funksiya D to'plamda kamayuvchi bo'lsin. D to'plamdan olingan ixtiyoriy a, b elementlari uchun $(a > b)$ quyidagi munosabatlardan qaysi biri o'rinli?

A) $f(b) \le f(a)$ B) $f(b) < f(a)$ C) $f(a) < f(b)$
D) $f(a) = f(b)$

66. Muntazam uchburchakli piramida asosining tomonidan unga ayqash yon qirraga perpendikular bo'lgan tekislik o'tkazilgan. Kesuvchi tekislik yon qirrani uchidan hisoblaganda 3:2 nisbatda kesadi. Asos tomoni $9\sqrt{2}$ ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) *243* B) *121,5* C) *202,5* D) *162*

67. Kitobda 128 ta sahifa mavjud. Agar har bir sahifada 32 ta satr va har bir satrda 64 ta belgi bo'lsa, bu kitob necha megabayt axborot hajmiga ega?

A) *0,125* B) *0,25* C) *0,5* D) *0,24*

68. $5C9$, $6AC$ butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar raqamlarining yig'indisini hisoblang.

A) *46* B) *3C* C) *42* D) *39*

69. Mutlaqo tekin tarqatiladigan dasturlar – bu ...

A) *Software* B) *Hardware* C) *Shareware* D) *Freeware*

70. MS Excel dasturida formulaning natijasini aniqlang:
$A1 = -12$; $B1 = 15$; $= -1 * ABS(A1) + B1 * 3HAK(-1 * A1)$

A) *27* B) *-27* C) *3* D) *-3*

71. Berilgan teglardan qaysi biri HTML tilidagi hujjatda tagchiziqli shrift turini ishlatish uchun qo'llaniladi?

A) <U> ... </U> B) <B> ... </B>
C) <Em> ... </Em> D) <P> ... </P>

72. Paskal. Quyidagi dasturning ekrandagi natijasini aniqlang.

```
var a, b: integer; s:real;
Begin a:=2; s:=1; for b:=1 to 6 do s:=s+a*b;
writeln (s:5:2); end.
```

A) *43.00* B) *-41* C) *-41.00* D) *43*

111-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. To'g'ri tenglikni aniqlang. $(a \in R,\ \frac{m}{n} \in Q)$

A) $(a+1)^{-1} = \frac{1}{a+1}$

B) $\sqrt{(a^2+1)^2} = a^2+1$

C) $\sqrt{(a+1)^2} = a+1$

D) $(a+1)^{\frac{m}{n}} = \sqrt[n]{(a+1)^m}$

38. $\log_{3,5}\left(\sqrt{2x+3} - x\right) > 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan butun sonlar ko'paytmasini toping.

A) -1 B) 0 C) -2 D) 4

39. Agar $\vec{a}(-4;8;-12)$ va $\vec{b}(-6;-3;9)$ berilgan bo'lsa, $\frac{\vec{a}}{2}$ va $\frac{\vec{b}}{3}$ vektorlar orasidagi burchak kosinusini toping.

A) $-\frac{9}{11}$ B) $-\frac{9}{14}$ C) $-\frac{9}{16}$ D) $-\frac{9}{13}$

40. Agar $f(x) = 13^x \cdot 3x$ bo'lsa, $f'(x) > 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty; -\log_{13} e)$ B) $(-\log_{13} e; \infty)$ C) $(-2\log_{13} e; \infty)$ D) $(-\log_{13} e; e)$

41. Hisoblang:

$$\log_{2\sqrt{2}}\left(\left(1+\frac{1}{2}\right)\cdot\left(1+\frac{1}{3}\right)\cdot\left(1+\frac{1}{4}\right)\cdots\left(1+\frac{1}{15}\right)\right)$$

A) 2 B) $\frac{1}{2}$ C) -3 D) 3

42. Quyidagi ko'pyoqlardan qaysi birida 4 ta yoq bor?



A) *1, 3* B) *1* C) *3* D) *2*

43. $\frac{\operatorname{tg} 38^\circ \cdot (1 - \operatorname{tg}^2 19^\circ)}{4 \operatorname{tg} 19^\circ}$ ni hisoblang.

A) -2 B) $0,5$ C) -1 D) 2

44. $\alpha = 30^\circ$, $a = (\operatorname{tg}\alpha)^{\operatorname{tg}\alpha}$, $b = (\operatorname{tg}\alpha)^{\operatorname{ctg}\alpha}$, $c = (\operatorname{ctg}\alpha)^{\operatorname{tg}\alpha}$, $d = (\operatorname{ctg}\alpha)^{\operatorname{ctg}\alpha}$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri o'rinli?

A) $d > c > a > b$ B) $d > c > b > a$ C) $c > d > a > b$ D) $d > a > c > b$

45. Geometrik progressiya n-hadi $b_n = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot 5^{n-4}$ ga teng. Progressiyaning maxrajini toping.

A) *0,2* B) -5 C) *5* D) *0,5*

46. $ABCD$ parallelogrammda CD tomonni D uchidan boshlab hisoblaganda 2:3 nisbatda bo'luvchi AN to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Agar ANC uchburchakning yuzi 18 ga teng bo'lsa, parallelogramning yuzini toping.

A) *45* B) *30* C) $30\sqrt{2}$ D) *60*

47. Juft natural n son beshta natural bo'luvchiga (1 va n bilan birga) ega. $10n$ son nechta natural bo'luvchiga ega?

A) *10* B) *12* C) *5* D) *8*

48. $y = f(x)$ funksiya D to'plamda noqat'iy kamayuvchi bo'lsin. D to'plamdan olingan ixtiyoriy a, b elementlari uchun $(a < b)$ quyidagi munosabatlardan qaysi biri o'rinli?

A) $f(b) \le f(a)$ B) $f(a) < f(b)$ C) $f(b) = f(a)$ D) $f(a) \le f(b)$

49. $y = \frac{1}{x^2}$; $y = 0$; $x = 1$; $x = 2$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) *2* B) *4* C) *0,5* D) *2,5*

50. Ushbu $f(x) = \frac{2x}{x+1}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\ln(x+1)^2 + C$ B) $2x - 2\ln|x+1| + C$

C) $\frac{2x^2}{(x+1)^2} + C$ D) $\frac{2}{(x+1)^2} + C$

51. $y = 3\sin(2x + \frac{\pi}{4})$ funksiya nechta butun qiymatlarni qabul qiladi?

A) *0* B) *7* C) *6* D) *cheksiz ko'p*

52. Poyezd 5 minutda 10 kilometr masofani, motosikl 6 minutda 10 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) *80%* B) $81\frac{2}{3}\%$ C) $83\frac{1}{3}\%$ D) $63\frac{1}{3}\%$

111-variant

$\begin{cases} \frac{1}{3x} - \frac{1}{2y} = \frac{1}{3} \\ \frac{1}{9x^2} - \frac{1}{4y^2} = \frac{1}{4} \end{cases}$ tenglamalar sistemasining barcha x va y lari uchun $x+y$ ning qiymatini toping.

A) $3\frac{12}{65}$ B) $2\frac{51}{65}$ C) $2\frac{12}{65}$ D) $3\frac{1}{65}$

4. 60° ga teng bo'lgan A burchakka aylana ichki chizilgan. Bu aylana burchak tomonlariga B va C nuqtalarda urinadi. Agar BC=3 bo'lsa, $AB+AC$ ni toping.

A) *3* B) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* C) *6* D) *4*

5. Rasmda $y = a + \frac{b}{x+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli?



A) $ca + 4b < 0$ B) $b^3 - c^3 < 0$ C) $c + a < 0$
D) $3a + 5b < 0$

56. $ABCD$ tetraedrning D uchidagi barcha yassi burchaklar to'g'ri. Shu tetraedrga kub shunday ichki chizilganki, kubning bitta uchi D nuqtada, unga qarama-qarshi uchi esa ABC yoqda yotibdi. Agar DA=1, DB=4 va DC = 5 bo'lsa, kub qirrasining uzunligini toping.

A) $\sqrt{2}$ B) $\frac{17}{19}$ C) $\frac{13}{12}$ D) $\frac{20}{29}$

57. $\frac{x^3+y^3+z^3-3xyz}{x^2+y^2+z^2-xy-xz-yz}$ ifodani soddalashtiring.

A) $x+y+z$ B) $x-y+z$ C) $x-y-z$ D) $x+y-z$

58. $y = 4sin6x + 3sin8x$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $48cosx \cdot cos7x$ B) $-48cosx \cdot sin7x$ C) $48sinx \cdot cos7x$
D) $48sinx \cdot sin7x$

59. $\log_2^4 x - \log_{0,5}^2 \frac{x^3}{8} + 9\log_2 \frac{32}{x^2} < 4\log_{0,5}^2 x$ tengsizlikning eng katta va eng kichik butun yechimlari ko'paytmasini toping.

A) *32* B) *42* C) *40* D) *35*

60. k ning qanday qiymatlarida $\frac{1}{x+1} = 1-k$ tenglama manfiy yechimga ega?

A) $k<1$ B) $k \le 0$ C) $k>0; k<1$ D) $k<0; k>1$

61. To'g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasiga tushirilgan balandligi 6 ga, to'g'ri burchak bissektrisasi 7 ga teng. Uchburchakning yuzini toping

A) *148* B) $76\frac{11}{23}$ C) $76\frac{16}{23}$ D) $75\frac{16}{25}$

62 $\{x | x \in N, -6 < x \le 5\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) *11* B) *8* C) *32* D) *16*

63 Agar barcha x, y lar uchun $x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2 = x^3+y^2$ ayniyat bajarilsa, $|a+b+c|(a-b-c+d)$ ni toping. $(c>1)$

A) -16 B) *2* C) -10 D) *4*

64. Parallepipedning asoslari tomoni 4 ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallelepipedning hajmini toping.

A) $32\sqrt{2}$ B) *8* C) $16\sqrt{2}$ D) $8\sqrt{2}$

65. $y>0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1;0)$, $B(1;y)$, $C(-9;y)$ va $D(-11;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *y ga bog'liq* B) $\sqrt{2}$ C) *2* D) *1*

66. Agar $|x+4| = \frac{x}{2} + a$ tenglama a parametrning nechta natural qiymatida yechimga ega emas?

A) *3* B) *1* C) *2* D) *0*

67. 1 Mbayt necha Kbitni tashkil qiladi?

A) *1024 kbit* B) *10240 kbit* C) *1000 kbit* D) *1240 kbit*

68. 30, 340, 241, 212 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

A) *1423* B) *1153* C) *1303* D) *2203*

69. ... – kompyuterga o'rnatilgan dasturiy ta'minotni o'chirish jarayonidir.

A) *Deinstallyatsiya* B) *Arxivlash* C) *Defragmentatsiya*
D) *Installyatsiya*

70. $A1$=–3, $A2$=1, $B1$=9, $B2$=4 bo'lsin. Natijasi –8,25 ga teng bo'ladigan formulani aniqlang.

A) *=ЕСЛИ(A1+2>B1-1;B2;A2)*
B) *=СУММ(-A1+B2;A2+B1)*
C) *=ЦЕЛОЕ(A1/B2) +A2-B1*
D) *=СРЗНАЧ(A1:B2) *A1*

71. Berilgan teglardan qaysi biri HTML tilidagi hujjatda tagchiziqli shrift turini ishlatish uchun qo'llaniladi?

A) <B> ... </B> B) <U> ... </U>
C) <Em> ... </Em> D) <P> ... </P>

72. Paskal dasturlash tilida berilgan ushbu ifodaning qiymatini toping.

trunc(sqrt(sqr(abs(trunc(4.3)-sqrt(100) *round(1,6)))))

A) *4* B) *7* C) *5* D) *6*

112-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. $\int_2^5 \frac{3x}{x-1}dx$ integralni hisoblang.

A) $2\ln 3e^3$ B) $3\ln 4e^3$ C) 5 D) $3\ln 4e$

38. $y = \log_5(\sin^2 3x + \cos^2 3x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) 1 B) $\log_5 2$ C) 0 D) $-\log_5 2$

39. To'g'ri burchakli trapetsiyaning asoslari 5 va 1 ga teng. Unga ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) $\frac{5}{6}$ B) $0{,}5$ C) $\frac{1}{6}$ D) $0{,}2$

40. Nechta tub son $|x^2 - 2x| \le x$ tengsizlikning yechimi bo'ladi?

A) 3 B) 0 C) 2

41. Hisoblang:

$$\log_{2\sqrt{2}}\left(\left(1-\frac{1}{2}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{3}\right)\cdot\left(1-\frac{1}{4}\right)\cdots\left(1-\frac{1}{64}\right)\right)$$

A) -2 B) -3 C) -4 D) 1

42. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;-2)$, $C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A 2 B) $2\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{3}$ D) 3

43. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 5 ga teng bo'lsa, $a + 5b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nechaga teng?

A) 1 B) 4 C) 5 D) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi*

44. $\{x|x \in N, 6 \le x^2 \le 40\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) 16 B) 32 C) 5 D) 8

45. $\frac{\cos^2 3x - \cos^2 5x}{\sin 8x}$ ifodani soddalashtiring.

A) 1 B) $\sin 4x$ C) $-\sin 2x$ D) $\sin 2x$

46. $D_1(f)$ to'plamda $f(x)$ va $D_2(g)$ to'plamda $g(x)$ funksiyalari berilgan bo'lsa, quyidagi qaysi sohada $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar ko'paytmasi aniqlangan bo'ladi?

A) $D_1(f) \cap D_2(g)$ *to'plamda berilgan, bunda* $D_1(f) \cup D_2(g) = \emptyset$

B) $D_1(f) \cup D_2(g)$ *to'plamda berilgan, bunda* $D_1(f) \cap D_2(g) \neq \emptyset$

C) $D_1(f) \cap D_2(g)$ *to'plamda berilgan, bunda* $D_1(f) \cap D_2(g) \neq \emptyset$

D) $D_1(f) \cup D_2(g)$ *to'plamda berilgan, bunda* $D_1(f) \cap D_2(g) = \emptyset$

47. Parallelepipedning asoslari tomoni 4 ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallelepipedning hajmini toping.

A) $16\sqrt{2}$ B) $32\sqrt{2}$ C) 8 D) $8\sqrt{2}$

48. 123451234512345123451234512345 sonida 10 ta raqam shunday o'chirilganki, hosil bo'lgan son eng katta bo'ldi. Shu sonning 4-raqamini toping.

A) 3 B) 4 C) 5 D) 2

49. $|x+5|^{x^2-1} \ge 1$ tengsizlikni qanoatlantirmaydigan eng katta butun sonni toping.

A) -2 B) 3 C) -1 D) 0

50. $a = 2$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $2\sqrt{2}$ B) $\sqrt{2}$ C) $\frac{\ln 2-1}{2}$ D) 1

51. $\begin{cases} \frac{a-b}{b} = \frac{3}{2}, \\ sin\frac{\pi}{2} - \frac{b}{a} = c \end{cases}$ bo'lsa, $c-$?

A) $\frac{3}{5}$ B) $\frac{2}{5}$ C) 8 D) $\frac{4}{5}$

52. Quyidagi ko'pyoqlardan qaysi birida 5 ta yoq, 9 ta qirra va 6 ta uchi bor?



A) 1, 3 B) 3 C) 1 D) 2

53. $\begin{cases} \frac{1}{3x} - \frac{1}{2y} = \frac{1}{3} \\ \frac{1}{9x^2} - \frac{1}{4y^2} = \frac{1}{4} \end{cases}$ tenglamalar sistemasining barcha x va y lari uchun $x + y$ ning qiymatini toping.

A) $3\frac{12}{65}$ B) $2\frac{51}{65}$ C) $2\frac{12}{65}$ D) $3\frac{1}{65}$

54. $\log_3 2 \cdot \log_4 3 \cdot \log_5 4 \cdot \ldots \log_{10} 9$ hisoblang.

A) 2 B) $\frac{9}{10}$ C) $\lg 2$ D) $\log_9 2$

55. Agar $a > 3$, $b > 5$ bo'lsa, quyidagilardan qaysilari doim o'rinli?

1) $2a + 3b > 21$; 2) $2a + 3b > 36 - ab$; 3) $2a^2 + 3b^2 > 94$; 4) $2a^2 + 3b^2 > 93$; 5) $a(1 + b) > 19$

A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 3, 4, 5 D) 2, 4, 5

56. Rasmda $y = a + \frac{2}{bx+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $a = 0$ B) $bc - ab = 0$ C) $b - c > 0$ D) $b - a^2c^2 <$

112-variant

[illegible] $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $f'(x) = 0$ [illegible] yechimlari o'rta arifmetigini toping. $(x \in [-3;3])$



A) 0 B) 1,5 C) 1 D) 2

58. Agar x quyidagi tenglamani qanoatlantirsa, $\operatorname{tg} 4x$ ning barcha qiymatlari ko'paytmasini toping.
$1 + \cos 4x - 3\sin 2x = 0$
A) 0 B) -3 C) -1 D) $\sqrt{3}$

59. $3(\sin^4\alpha + \cos^4\alpha) - 2(\sin^6\alpha + cos^6\alpha)$ ifodaning $\alpha = -105°$ bo'lgandagi qiymatini toping.
A) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) *1* C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\sqrt{3}$

60. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(0;y)$, $C(10;y)$ va $D(12;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.
A) $\sqrt{2}$ B) *2* C) *y ga bog'liq* D) *1*

61. $y = \ln\left(\operatorname{arctg} 2x + \operatorname{arcctg} 2x - \frac{\pi}{2} + 1\right)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi qiymatini hisoblang.
A) $-\ln 2$ B) *1* C) *0* D) $\ln 2$

62. Poyezd 3 minutda 8 kilometr masofani, motosikl 4 minutda 8 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?
A) *75%* B) *67%* C) *77%* D) *73%*

63. To'g'ri burchakli uchburchakning bir kateti 6 ga teng. Uning medianalari kesishish nuqtasidan ikkinchi katetigacha bo'lgan masofani toping.
A) *2* B) *1,5* C) *1,2* D) *3*

64. Geometrik progressiya n-hadi $b_n = \frac{1}{3} \cdot 5^{n+1}$ ga teng.
Progressiyaning maxrajini toping.
A) *0,2* B) -5 C) *5* D) *0,5*

65. R radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchak $45°$ ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.
A) $4R^2$ B) $3R^2$ C) $2R^2\sqrt{2}$ D) $2R^2$

66. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki AD=23, DC=25 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar BD to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.
A) $\sqrt{2}$ B) *1* C) $\sqrt{3}$ D) *2*

67. Qanday qurilmani Semyuel Morze ixtro qilgan?
A) *telefon* B) *telefaks* C) *elektromagnit telegraf*
D) *televizor*

68. Tenglik o'rinli bo'lishi uchun sonlarning asosi qanday bo'lishi kerak? $24123_{(x)}+3210_{(x)}=30333_{(x)}$
A) *Yettilik* B) *To'qqizlik* C) *Sakkizlik* D) *Oltilik*

69. Superkompyuterlarda foydalaniladigan ko'p foydalanuvchili operatsion tizim (sistema)ni toping
A) *WINDOWS 95* B) *MS-DOS* C) *WINDOWS XP*
D) *UNIX*

70. MS Excel dasturida quyidagi formulaning natijasini aniqlang: $= ABS(-12) + 15 * 3HAK(-12)$
A) *27* B) *-27* C) *3* D) *-3*

71. Qanday texnologiya tasvirli va tovushli axborotlarni olis masofalardan qisqa vaqtda uzatishga imkoniyat beradi?
A) *E-mail* B) *World Wide Web* C) *Internet Protocol*
D) *Uniform Resourse locator*

72. Paskal dasturlash tilida berilgan ushbu ifodaning qiymatini toping.
trunc(sqrt(sqr(abs(trunc(4.3)-sqrt(100) *round(1.6)))))
A) *5* B) *4* C) *6* D) *7*

113-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. Hisoblang: $(1+\operatorname{tg}10^\circ)(1+\operatorname{tg}11^\circ)(1+\operatorname{tg}34^\circ)(1+\operatorname{tg}35^\circ)$

A) *4* B) *16* C) *8* D) *2*

38. $y>0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(0;y)$, $C(-4;y)$ va $D(-6;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *y ga bog'liq* B) *1* C) *2* D) $\sqrt{2}$

39. [200; 800] kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) *4* B) *1* C) *3* D) *2*

40. Agar barcha x, y lar uchun $x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$ ayniyat bajarilsa, $a+c$ ni toping. $(c>1)$

A) -3 B) -5, C) *4* D) *2*

41. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;1)$, $C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) *2* C) *1* D) $\sqrt{2}$

42. Hisoblang: $\log_2\left(\dfrac{1+\sqrt{7}}{\sqrt{4+\sqrt{7}}}-\dfrac{1-\sqrt{5}}{\sqrt{3-\sqrt{5}}}\right)$

A) *1,5* B) *1* C) *-1,2* D) *0*

43. $\int\limits_1^2 \frac{x}{x+1}dx$ integralni hisoblang.

A) $\ln 2e$ B) $\ln 3e$ C) $\ln\dfrac{2e}{3}$ D) *1*

44. $y=\log_7(\sin^2 3x+\cos^2 3x)$ funksiyaning $x=\dfrac{2016\pi}{6}$ nuqtadagi qiymatini hisoblang.

A) $\log_7 2$ B) *1* C) $-\log_7 2$ D) *0*

45. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2-46x=y^2-46y$ tenglikni qanoatlantirsa, $x+y$ ni toping.

A) *23* B) *0* C) *46* D) *24*

46. $\log_2(2\sqrt{x+5}+5)+\log_{0,5}(-x-0,5)=1$ tenglamaning manfiy butun yechimlari nechta?

A) *2* B) *1* C) *0* D) *3*

47. $y=\sin x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y=\sin(x+a)+b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a;b)$ B) $N(b;a)$ C) $N(a;-b)$ D) $N(a;b)$

48. Ikkita sonning yig'indisi 32 ga, kvadratlarining ayirmasi 192 ga teng. Shu ikkita sonning kvadratlari yig'indisini toping.

A) 570 B) 480 C) 630 D) 530

49. Tenglamani yeching. $19+5\sqrt{3,2-x}=4+5x$

A) $2,5-1,5\sqrt{0,2}$; $2,5+1,5\sqrt{0,2}$
B) $2,5+1,5\sqrt{0,2}$
C) $2,5-1,5\sqrt{0,2}$
D) $2,5+3\sqrt{0,2}$

50. $\left|\dfrac{|x+2|-|x|}{\sqrt{4-x^2}}\right|\geq 0$ tengsizlikni qanoatlantirmaydigan eng katta manfiy va eng kichik natural sonlar nisbatini toping.

A) -4 B) -1 C) -3 D) *0*

51. $5\cdot 0,2^{\lg x}>0,04^{\lg 2}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha natural sonlar yig'indisini toping.

A) *780* B) *820* C) *380* D) *760*

52. Rasmga qarab noto'g'ri tasdiqni aniqlang.



A) *AB kesma uzunligi CD kesma uzunligidan katta*
B) *AD kesma uzunligi AB kesma uzunligidan katta*
C) *AB va CD to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi, markazi O nuqtada bo'lgan doira tashqarisida joylashgan*
D) *AB – aylana diametri*

53. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki AD=13, DC=15 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar BD to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.

A) *2* B) $\sqrt{3}$ C) *1* D) $\sqrt{2}$

54. a va b natural sonlarning umumiy bo'luvchilari soni 6 ga teng bo'lsa, $a+2b$ va b sonlarning umumiy bo'luvchilari nechta?

A) *1* B) *4* C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) *6*

55. $y=\ln(\sin^2 3x+\cos^2 3x)$ funksiyaning $x=\dfrac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) $-\ln 2$ B) $\ln 2$ C) *0* D) *1*

56. Bir savat olma 20000 so'm, bir savat nok 30000 so'm, bir savat olxo'ri 40000 so'm turadi. Sakkiz savat mevaning bahosi 230000 so'm bo'lsa, ulardan eng ko'pi bilan nechtasida olxo'ri bo'lishi mumkin?

A) *3* B) *2* C) *1* D) *4*

57. $y=ln(6+2(sin^2x-3sin4x)+cos8x+cos2x)$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli nomusbat butun sonlar nechta?

A) *cheksiz ko'p* B) *2 ta* C) *4 ta* D) *3 ta*

58. $a=4$ bo'lsa, $\int\limits_a^{a+1}(ln(\sin^2 2x+\cos^2 2x)+1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $2\sqrt{2}$ B) *1* C) $\sqrt{2}$ D) $\frac{\ln 2-1}{2}$

59. Arifmetik progressiya n-hadi $a_n=-\dfrac{n+4}{5}$ ga teng. Progressiyaning ayirmasini toping.

A) -1 B) $-0,2$ C) $-0,5$ D) -2

60. Parallelepipedning asoslari tomoni 4 ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallelepipedning hajmini toping.

A) $16\sqrt{2}$ B) *8* C) $32\sqrt{2}$ D) $8\sqrt{2}$

113-variant

61. ABC uchburchakning BC tomoniga AD to'g'ri chiziq shunday o'tkazilganki, natijada AC asosli teng yonli ADC uchburchak hosil bo'lgan. Agar ABC va ABD uchburchaklar perimetrlari mos ravishda 51 va 40 ga teng bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.

A) *12* B) *14* C) *17* D) *11*

62. $ABCD$ tetraedrning D uchidagi barcha yassi burchaklar to'g'ri. Shu tetraedrga kub shunday ichki chizilganki, kubning bitta uchi D nuqtada, unga qarama-qarshi uchi esa ABC yoqda yotibdi. Agar DA=3, DB=4 va DC = 8 bo'lsa, kub qirrasining uzunligini toping.

A) $\frac{17}{19}$ B) $\frac{24}{17}$ C) $\frac{11}{12}$ D) $\sqrt{2}$

63. $\{x|x \in N, 7 \leq x^2 \leq 41\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) *16* B) *8* C) *32* D) *5*

64. To'g'ri burchakli ABC uchburchak gipotenuzasiga tushirilgan CD balandlik bilan BCD va ACD uchburchaklarga bo'lingan. Shu uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar radiuslari mos ravishda 7 va 24 ga teng. CD balandlikni toping.

A) *58* B) *54* C) $44\sqrt{2}$ D) *56*

65. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y = f(x)$ funksiyaning $-3 < x \leq 0$ oraliqdagi o'sish oralig'ini toping.



A) $(-1;0)$ B) $(-3;-1)$ C) $(-\infty;-3)$ D) $(-3;0)$

66. Agar $\text{ctg}^2\,\alpha = \frac{1}{3}$ va $\alpha \in \left(0;\frac{\pi}{2}\right)$ bo'lsa, $\cos^2\alpha - \sin^2\alpha$ ni hisoblang.

A) $-\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{3}$ C) $-\frac{1}{4}$ D) $\frac{1}{2}$

67. Ingliz tilidagi qaysi so'zlardan bit atamasi hosil qilingan?

A) *binary disk* B) *binary digit* C) *binom digital*
D) *bitmap digit*

68. Olimpiadada 100 kishi qatnashdi. Ulardan 54 tasi o'g'il bola va 13 tasi qizbola. Hisoblash bajarilgan sanoq sistemasida 444+333 amali natijasini aniqlang.

A) *1110* B) *1221* C) *1332* D) *777*

69. Mutlaqo tekin tarqatiladigan dasturlar – bu ...

A) *Shareware* B) *Freeware* C) *Hardware* D) *Software*

70. MS Excel. A1=10; B1=14; B2=6 bo'lsa, =MAKC(A1-B2;A2-B1) funksiyaning natijasi 7 ga teng bo'lishi uchun A2 katakda qanday son bo'lishi kerak?

A) *20* B) *19* C) *21* D) *18*

71. Qanday xizmatlar Internet orqali ikki kishining o'zaro yuzma-yuz ovozli suhbatini amalga oshirish imkonini beradi?

A) *Mapple, Skype, ICQ*
B) *Outlook Express, Mail.ru Agent, ICQ*
C) *Skype, ICQ, Mail.ru Agent* D) *PHP, ICQ, chat*

72. Paskal. Quyidagi dastur natijasini aniqlang.

```
Var x, y, z : Real;
Begin y:=-1; x:=0;
IF (x>=0) and (1+Sqrt(x) <>0) THEN
Begin z:=Sqr(1+y+x)/(1+Sqrt(x));
Write('Z=', z:5:2); end
ELSE Write('Hisoblab bo'lmaydi'); End.
```

A) *Hisoblab bo'lmaydi*
B) *Z= 0.00*
C) *Z= 2.00*
D) *Kompilyatsiyada xatolik xabari chiqadi*

114-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 - 36y = y^2 + 36x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) 24 B) 0 C) 36 D) 18

38. Agar $\vec{a}(-4; 8; -12)$ va $\vec{b}(-6; -3; 9)$ berilgan bo'lsa, $\frac{\vec{a}}{2}$ va $\frac{\vec{b}}{3}$ vektorlar orasidagi burchak kosinusini toping.

A) $-\frac{9}{16}$ B) $-\frac{9}{13}$ C) $-\frac{9}{14}$ D) $-\frac{9}{11}$

39. $y = 3cos4x + 2cos6x$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $24cosx \cdot cos5x$ B) $24sinx \cdot cos5x$ C) $24sinx \cdot sin5x$
D) $-24cosx \cdot sin5x$

40. $\log_5(5^x - 24) = 2 - x$ tenglamani yeching.

A) $\emptyset$ B) 3 C) 2 D) 1

41. Prizmaning qirralari soni 69 ga teng. Uning yoqlari sonini toping.

A) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* B) 23 C) 25 D) 69

42. Ixtiyoriy x, y haqiqiy sonlar uchun $a = 5x^2 + \frac{1}{5}y^2$ va $b = 2|xy|$ bo'lsin. Qaysi tengsizlik har doim o'rinli?

A) $a > b$ B) $a \geq b$ C) $a < b$ D) $a \leq b$

43. $\frac{x-4}{x-5} + \frac{6x-30}{x-4} = 5$ tenglamani yeching.

A) 5,5; 6 B) -5,5; 6 C) -5,5; -6 D) 6,5; 6

44. $y = \sqrt{x^2} + |2x - 4| + 1$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) 3 B) 4 C) 2 D) 5

45. $4 + \frac{2}{5^x - 1} = \frac{3}{5^{x-1}}$ tenglamaning kichik ildizini toping.

A) $\log_5 3$ B) $1 - \log_5 4$ C) 1 D) $\log_5 6\frac{1}{4}$

46. Poyezd 5 minutda 10 kilometr masofani, motosikl 6 minutda 10 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) $81\frac{2}{3}\%$ B) 80% C) $63\frac{1}{3}\%$ D) $83\frac{1}{3}\%$

47. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1; 0)$, $B(1; y)$, $C(9; y)$ va $D(11; 0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) 2 C) *y ga bog'liq* D) $\sqrt{2}$

48. Rasmga qarab noto'g'ri tasdiqni aniqlang.



A) *AB va CD to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi, markazi O nuqtada bo'lgan doira tashqarisida joylashgan*
B) *ODK siniq chiziq uzunligi OK kesma uzunligidan kichik*
C) *AB – aylana diametri*
D) *AB kesma uzunligi CD kesma uzunligidan katta*

49. $5 \cdot 0,2^{\lg x} > 0,04^{\lg 2}$ tengsizlikni yeching.

A) [1; 40] B) (10; 50] C) (10; 50) D) (0; 40)

50. $3 \geq \frac{2 - 8x - x^2}{x^2 - 1}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi eng katta butun manfiy sonni toping.

A) -3 B) -1 C) -2 D) -5

51. $y = \log_3(\sin^2 x + \cos^2 x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi ikkinchi tartibli hosilasining qiymatini toping.

A) $-\log_3 2$ B) 0 C) $\log_3 2$ D) 1

52. [100; 500] kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

53. $ABCD$ to'rtburchakning har bir tomoni chizmada ko'rsatilgandek o'z uzunligiga teng uzunlikda davom ettirilgan. Agar $A'B'C'D'$ to'rtburchak yuzasi 25 ga teng bo'lsa, $ABCD$ to'rtburchak yuzasini toping.



A) 4,5 B) 6 C) 4 D) 5

54. $(0,2)^{\frac{1}{2}\log_5 2 - \log_{25} 4}$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $\sqrt[4]{2}$ C) $\sqrt{2}$ D) 2

55. $\frac{\cos^2 3x - \cos^2 5x}{\sin 8x}$ ifodani soddalashtiring.

A) 1 B) $-\sin 2x$ C) $\sin 2x$ D) $\sin 4x$

56. $y = \cos x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = \cos(x - a) + b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(a; -b)$ B) $N(a; b)$ C) $N(b; a)$ D) $N(-a; b)$

57. C nuqta – AB kesmaning o'rtasi. AC va BC kesmalarda mos ravishda M, N nuqtalar shunday olinganki, $AM{:}MC{=}CN{:}NB$ munosabat bajariladi. Agar AB kesma uzunligi 18 ga teng bo'lsa, MN kesma uzunligini toping.

A) 4 B) 9 C) 12 D) 10

114-variant

58. Sharga asosining tomoni 4 ga, balandligi 8 ga teng bo'lgan muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Shar radiusini toping.
A) 4 B) 4,5 C) $2\sqrt{2}$ D) 3,75

59. Agar barcha x, y lar uchun
A) *4* B) *3* C) *2* D) *1*

52. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(0;y)$, $C(-6;y)$ va $D(-8;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *1* B) $\sqrt{2}$ C) *2* D) *y ga bog'liq*

53. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 - 16x = y^2 - 16y$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) *24* B) *26* C) *0* D) *16*

54. $y = ln(6 + 2(sin^2x - 3sin4x) + cos8x + cos2x)$ funksiyaning qiymatlar sohasiga kirmaydigan eng kichik butun sonni toping.

A) *3* B) *-3* C) *2* D) *-2*

55. Hisoblang: $\text{ctg}^2\left(arcsin\frac{1}{\sqrt{5}}\right) - 5$

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{2}$ C) $-\frac{2}{3}$ D) -1

56. Qaysi jism(lar)ning simmetriya o'qlari chekli sonda?
1) shar; 2) prizma; 3) konus; 4) kub

A) *1* B) *2, 3* C) *3, 4* D) *2, 3, 4*

121-variant

$4 - x < \sqrt{6 - x}$ tengsizlikning yechimlaridan iborat bo'lgan natural sonlar yig'indisini toping.

A) *20* B) *12* C) *10* D) *18*

58. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-\frac{1}{2};-10)$, $C(-1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $4\sqrt{2}$ B) *5* C) *4* D) $3\sqrt{3}$

59. $\alpha = 7,5°$, $a = (\operatorname{tg}\alpha)^{\operatorname{tg}\alpha}$, $b = (\operatorname{tg}\alpha)^{\operatorname{ctg}\alpha}$, $c = (\operatorname{ctg}\alpha)^{\operatorname{ctg}\alpha}$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri o'rinli?

A) $c > a > b$ B) $b > c > a$ C) $b > a > c$ D) $c > b > a$

60. $\sqrt{4^{x-2} + \frac{15}{4^{2-x}}} = 16$ tenglamaning haqiqiy ildizlari yig'indisini toping.

A) *4,5* B) *5,5* C) *4* D) *5*

61. $\{x | x \in N, -2 \le x \le 5\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) *5* B) *32* C) *8* D) *16*

62. Asoslarining radiuslari 3 va 4 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.

A) $\sqrt{13}$ B) $\sqrt{12\frac{1}{3}}$ C) $\sqrt{17}$ D) $\sqrt{12\frac{2}{3}}$

63. a va b natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi 2 ga teng bo'lsa, $a + 3b$ va b sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi nechaga teng?

A) *4* B) *1* C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) *2*

64. $y = 4x^3 - 18x^2 + 24x - 10$ egri chizig'i qaysi nuqtalarida o'tkazilgan urinmalar Ox o'qiga parallel bo'ladi?

A) *(-2; -2) va (1; 0)* B) *(2; -2) va (1; 0)*
C) *(2; -2) va (0; 1)* D) *(-2; 2) va (0; 1)*

65. $4x^2 - \sqrt{x^2} - 3 = 0$ tenglama ildizlari ko'paytmasini toping.

A) -1 B) -4 C) *1* D) *2*

66. $ABCD$ parallelogrammning AD tomonidan P nuqta shunday olinganki, $AP{:}AD{=}1{:}5$. AC va BP to'g'ri chiziqlar Q nuqtada kesishsa, $\frac{AC}{AQ}$ ni toping.

A) $4\sqrt{3}$ B) $5\sqrt{2}$ C) *6* D) *5*

67. Qanday qurilmani Semyuel Morze ixtro qilgan?

A) *elektromagnit telegraf* B) *televizor* C) *telefaks*
D) *telefon*

68. Tenglik o'rinli bo'lishi uchun sonlarning asosi qanday bo'lishi kerak? $5_{(x)} * 4_{(x)} = 24_{(x)}$

A) *Yettilik* B) *To'qqizlik* C) *Sakkizlik* D) *Oltilik*

69. Qaysi javobda Windows operatsion tizim (sistema)ida katalog nomi noto'g'ri berilgan?

A) *Document_25* B) *Document/25* C) *Document-25*
D) *Document+25*

70. $A1{=}{-6}$, $A2{=}0$, $B1{=}7$, $B2{=}5$ bo'lsin. Natijasi 5 ga teng bo'ladigan formulani aniqlang.

A) *=МАКС(ABS(A1*A2);ABS(B1*B2))*
B) *=ЕСЛИ(A1*B2>=0;A2+9;B2+5)*
C) *=ЕСЛИ(A1*B2<0;A2+5;B2+9)*
D) *=МИН(ABS(A1);B2;ABS(B1*A2))*

71. Qanday xizmatlar Internet orqali ikki kishining o'zaro yuzma-yuz ovozli suhbatini amalga oshirish imkonini beradi?

A) *Skype, ICQ, Mail.ru Agent*
B) *Outlook Express, Mail.ru Agent, ICQ*
C) *Mapple, Skype, ICQ* D) *PHP, ICQ, chat*

72. Paskal dasturlash tilida berilgan ushbu ifodaning qiymatini toping.

trunc(sqrt(sqr(abs(trunc(4.3)-sqrt(100) *round(1.6)))))

A) *6* B) *4* C) *7* D) *5*

122-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. $\begin{cases} 3^{x-y}-2=1, \\ 9^{x+y}=729 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A) (1; 2) B) (2; 1) C) (1,5; 1,5) D) (2; 2)

38. $a=-b$, $c=-2$ bo'lsa, $\dfrac{c(a-b)^3+a(b-c)^3+b(c-a)^3}{c^2(b-a)+a^2(c-b)+b^2(a-c)}$ ifodaning qiymatini toping.

A) 2 B) 0 C) -2 D) 1

39. Teng yonli ucburchakning yon tomoniga o'tkazilgan mediana va asosi orasidagi burchak tangensi 4 ga teng. Ucburchakning asosidagi burchak tangensini toping.

A) 15 B) 12 C) 16 D) $2\sqrt{2}$

40. Agar barcha x, y lar uchun $x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$ ayniyat bajarilsa, $b+c-d$ ni toping. $(c>1)$

A) 2 B) -2 C) 9 D) -4

41. Hisoblang: $\dfrac{1}{\log_5 25}+\dfrac{1}{\log_{25} 25}+\dfrac{1}{\log_{125} 25}+\dfrac{1}{\log_{625} 25}$

A) 6 B) 4 C) 8 D) 5

42. $k\in N$ da $S_k=x^k+y^k$ darajali yig'indi, $\sigma_1=x+y$, $\sigma_2=xy$ bo'lsa, u holda quyidagi qaysi munosabat doim o'rinli?

A) $S_{n+1}=S_{n-1}\sigma_1-S_n\sigma_2$
B) $S_{n+1}=S_n\sigma_2-S_{n-1}\sigma_1$
C) $S_{n+1}=S_{n-1}\sigma_1+S_{n-1}\sigma_2$
D) $S_{n+1}=S_n\sigma_1-S_{n-1}\sigma_2$

43. $|x-2|^{10x^2-3x-1}=1$ tenglamaning musbat yechimlari sonini toping.

A) 2 B) 3 C) 0 D) 1

44. $\alpha=30^\circ$, $a=(\operatorname{tg}\alpha)^{\operatorname{tg}\alpha}$, $b=(\operatorname{tg}\alpha)^{\operatorname{ctg}\alpha}$, $c=(\operatorname{ctg}\alpha)^{\operatorname{tg}\alpha}$, $d=(\operatorname{ctg}\alpha)^{\operatorname{ctg}\alpha}$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri o'rinli?

A) $d>c>b>a$ B) $d>c>a>b$ C) $c>d>a>b$
D) $d>a>c>b$

45. $y>0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(0;y)$, $C(-1;y)$ va $D(-3;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) $\sqrt{2}$ B) y ga bog'liq C) 2 D) 1

46. $y=|x-2|+|x-3|+|x-4|$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) 1 B) 2 C) 0 D) 3

47. Parallelepipedning asoslari tomoni $4\sqrt{2}$ ga teng kvadratla barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallelepipedning hajmini toping

A) 16 B) 64 C) 128 D) $16\sqrt{2}$

48. $\sqrt[3]{x^{\log_3 \sqrt[3]{x}}}>3$ tengsizlikning yechimi bo'lmaydigan eng k natural sonni toping.

A) 28 B) 11 C) 12 D) 27

49. $4-x<\sqrt{6-x}$ tengsizlikning natural yechimlaridan eng katta va eng kichigining ayirmasini toping.

A) 6 B) 4 C) 1 D) 3

50. Ushbu $f(x)=\dfrac{2x-1}{x^2-x-2}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

A) $\ln|x-2|+C$ B) $\ln|x+1|+C$
C) $\ln(|x-2|\cdot|x+1|)+C$ D) $\ln(|x+2|\cdot|x-1|)+C$

51. Hisoblang: $\operatorname{ctg}^2\left(arcsin\dfrac{1}{\sqrt{5}}\right)-5$

A) $-\dfrac{2}{3}$ B) $-\dfrac{1}{2}$ C) $\dfrac{1}{2}$ D) -1

52. Agar $\vec{a}(-4;3;5)$ va $\vec{b}(3;-4;\sqrt{2})$ berilgan bo'lsa, $\dfrac{|\vec{a}|}{\sqrt{2}}+\dfrac{|\vec{b}|}{\sqrt{3}}$ hisoblang.

A) 8 B) 9 C) 7 D) 5

53. $y=7sin5x+5sin7x$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $-70cosx\cdot sin6x$ B) $70cosx\cdot cos6x$ C) $70sinx\cdot cos6$
D) $70sinx\cdot sin6x$

54. $a_1, a_2, \ldots, a_8$ ketma-ketlikda ixtiyoriy uchta ketma-ket hadining yig'indisi 40 ga teng. Agar ketma-ketlikning uchinchi hadi 9 ga teng bo'lsa, birinchi va sakkizinchi hadlarining yig'indisi nechaga teng?

A) 9 B) 31 C) 33 D) 18

55. Qavariq ko'pburchakning x ga teng bo'lgan bitta barchagidan tashqari qolgan barcha burchaklari yig'indisi 2192° ga teng. x burchakning gradus o'lchovini toping.

A) 148° B) 154° C) *aniqlab bo'lmaydi* D) 150°

56. $x^2-3\sqrt{x^2}-4=0$ tenglama ildizlari yig'indisini toping.

A) 16 B) 2 C) 0 D) 4

57. Rasmga qarab noto'g'ri tasdiqni aniqlang.



A) *AB – aylana diametri*
B) *ODK siniq chiziq uzunligi OK kesma uzunligiga teng*
C) *AB va CD to'g'ri chiziqlar kesishish nuqtasi, markazi O nuqtada bo'lgan doira tashqarisida joylashgan*
D) *AB kesma uzunligi CD kesma uzunligidan katta*

58. Kichkina koala daraxt barglarini 10 soatda yeb tugatadi, otasi ham, onasi ham undan 2 marta tez yeydi. Ular bitta daraxtni necha soatda yeb tugatadi?

A) 4 B) 2 C) 3 D) 5

59. [2; 400] kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 2 B) 1 C) 3 D) 4

122-variant

60. Har qanday $x \in (x_1, x_2)$ uchun $y = f(x)$ funksiya hosilasi musbat bo'lsin. (x_1, x_2) oraliqqa tegishli ixtiyoriy a va b $(a > b)$ uchun qanday tengsizlik o'rinli?

A) $f(b) \geq f(a)$ B) $f(b) < f(a)$ C) $0 < f(a) < f(b)$ D) $f(a) < f(b)$

61. Rasmda $y = a + \dfrac{2}{bx + c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $b^3 - c^3 > 0$ B) $a^2 - c^3 > 0$ C) $a^2 + b^2 > 0$ D) $c - a > 0$

62. Trapetsiyaning 8 ga teng bo'lgan o'rta chizig' uning yuzini 3 : 5 kabi nisbatda bo'ladi. Trapetsiyaning asoslarini toping.

A) *5 va 11* B) *6 va 10* C) *3 va 13* D) *4 va 12*

63. $y = \ln(\text{arctg}\, 2x + \text{arcctg}\, 2x)$ funksiyaning $x = \dfrac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) $-\ln 2$ B) $\ln 2$ C) *1* D) *0*

64. $\{x | x \in N, 5 \leq x^2 \leq 39\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) *16* B) *32* C) *5* D) *8*

65. R radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchak 30° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) $3R^2\sqrt{3}$ B) $R^2\sqrt{3}$ C) $2R^2\sqrt{3}$ D) $2R^2$

66. $a = 3$ bo'lsa, $\int\limits_a^{a+1} (ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{\ln 2 - 1}{2}$ B) $2\sqrt{2}$ C) *1* D) $\sqrt{2}$

67. ... – bu axborotning vaqt birligi ichida uzatilgan hajmi tushuniladi.

A) *Axborot uzatish tezligi* B) *Axborot xususiyati*
C) *Axborot hajmi* D) *Axborot o'lchov birligi*

68. 100, 202, 121 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig'indisini aniqlang.

A) *1200* B) *1023* C) *10111* D) *423*

69. proba.txt fayli joylashgan katalogni ko'rsating:
C : \doc\1\proba.txt

A) *1* B) *proba* C) *doc* D) *C : *

70. MS Excel. A1=2; A2=-18; A3=15 ga teng bo'lsa, ...(A1;A3+A2)=0,125 tenglik o'rinli bo'lishi uchun nuqtalar o'rnida qaysi funksiya qo'llangan bo'lishi kerak?

A) *СТЕПЕНЬ* B) *СУММ* C) *ОСТАТ* D) *СРЗНАЧ*

71. HTML hujjatida qanday teg satr qismini yangi satrga o'tkazadi?

A)
...</BR> B) <U>...</U>
C) <H1>...</H1> D) <P>...</P>

72. Agar $a = 16$, $b = 7$ va $c = 25$ bo'lsa, $trunc(sqr(a \bmod b) + sqrt(c))$ ifodaning natijasini toping. (Paskal dasturlash tilida)

A) *7* B) *9* C) *10* D) *8*

123-variant

Geometrik progressiya n-hadi $b_n = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot 5^{n-4}$ ga teng. Progressiyaning maxrajini toping.

A) *0,2* B) -5 C) *0,5* D) *5*

38. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(1;4)$, $C(2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) *4* B) *3* C) $2\sqrt{3}$ D) $3\sqrt{2}$

39. $2\lg x^2 - (lg(-x))^2 = 4$ tenglamani yeching.

A) $x = -100$ B) $x = -1$ C) $x = -4$ D) $x = -10$

40. Rombning tomoni 6 ga, o'tkir burchagi $60°$ ga teng. Rombning tomonlari va kichik diagonaliga urinuvchi aylana radiusini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) *3* C) $0,5\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{3}$

41. To'g'ri tenglikni aniqlang.

A) $(-124)^{\frac{7}{3}} = \sqrt[3]{124^7}$

B) $\sqrt{(x-2)^2} = |x-2|$

C) $\left(5^{\log_{25} 9} - \log_{\frac{1}{3}} 27\right)^{((sin^2 18° + sin^2 468°)\sqrt[3]{2} - \sqrt{3})} = 0$

D) $\frac{4(2a^2 - a - 1)}{5(2a+1)} = \frac{4}{5}(a-1),\ a \in R$

42. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 - 46x = y^2 - 46y$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) *24* B) *46* C) *0* D) *23*

43. $y = \log_3(\text{arctg}\, 2x + \text{arcctg}\, 2x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) *0* B) $\log_3 2$ C) $-\log_3 2$ D) *1*

44. Quyidagi ko'pyoqlardan qaysi birida 5 ta yoq, 8 ta qirra bor?



A) *2, 3* B) *1* C) *3* D) *2*

45. $|x-2|^{10x^2-3x-1} = 1$ tenglamaning nechta butun yechimi bor?

A) *4* B) *3* C) *2* D) *1*

46. $f(x) = ax^2 + x + b$ kvadrat uchhad uchun $f(1) + f(4) + f(6) + f(7) - f(2) - f(3) - f(5) - f(8)$ ni hisoblang.

A) *1* B) *0* C) -1 D) *a, b ga bog'liq*

47. Poyezd 3 minutda 8 kilometr masofani, motosikl 4 minutda 8 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) *67%* B) *77%* C) *73%* D) *75%*

48. $SABC$ uchburchakli piramidaning S uchidagi yassi burchaklari to'g'ri burchak. SO – piramida balandigi. AOB va BOC uchburchaklar yuzalari mos ravishda 8 va 2 ga teng. ASB uchburchak yuzasining BSC uchburchak yuzasiga nisbatini toping.

A) $\sqrt{2}$ B) 2 C) *3* D) *aniqlab bo'lmaydi*

49. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1;0)$, $B(-2;0)$, $C(1;-3)$. O'tkir burchaklar medianalari orasidagi o'tmas burchak kosinusini toping.

A) $-\frac{4}{7}$ B) $-\frac{4}{5}$ C) $-\frac{5}{7}$ D) $-\frac{3}{5}$

50. $[2;\ 400]$ kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldi 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) *4* B) *3* C) *2* D) *1*

51. Hisoblang: $\log_2\left(\frac{3}{0,(4)} + \frac{3}{0,(6)} + \frac{3}{0,(8)} + 1,375\right)$

A) *2* B) *1* C) $\log_2 3$ D) *4*

52. Agar barcha x, y lar uchun $x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3$ - ayniyat bajarilsa, $a + c$ ni toping. $(c > 1)$

A) -3 B) -5 C) *2* D) *4*

53. $a = 2$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$ aniq integr hisoblang.

A) *1* B) $\frac{\ln 2 - 1}{2}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

54. $\log_{\frac{1}{5}}^2 (9 - x^2) - 2\log_{\frac{1}{5}} (9 - x^2) - 8 \le 0$ tengsizlikning ba natural yechimlari yig'indisini toping.

A) *3* B) *10* C) *15* D) *6*

55. $\{x | x \in N, x^2 \le 30\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) *32* B) *30* C) *5* D) *16*

56. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $y = f(x)$ funksiya maksimum nuqtalarini toping.



A) $-3; 0; 3$ B) $-1; 1$ C) $-3; -1; 0; 1; 3$ D) $-2; \frac{1}{2}$

57. Hisoblang: $(\sqrt{7}+1) \cdot \left(\frac{12}{\sqrt{7}-1} \cdot \frac{18}{\sqrt{7}+5} - 4\sqrt{7}\right)$

A) *20* B) *24* C) $\sqrt{7}$ D) *15*

58. $y = f(x)$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = f(x-a) + b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a;-b)$ B) $N(a;b)$ C) $N(a;-b)$ D) $N(-a;b)$

59. Ifodaning eng kichik qiymatini toping: $\frac{1}{8}\cos 4\alpha - \sin^2 2\alpha$

A) $-0,125$ B) $-1,5$ C) $-1,125$ D) -1

123-variant

60.



Rasmda AB katta aylana diametri, O_1 katta aylana markazi, O_2 va O_3 kichik aylana markazlari bo'lib, ular uchun $AO_1 : O_1O_2 = O_2O_3 : O_3B$ tenglik o'rinli. S_2 soha yuzini idodalaydigan son shu soha perimetrini ifodalaydigan sondan 50% ga katta bo'lsa, katta aylana uzunligini toping.

A) 12π B) 18π C) 10π D) 15π

61. Akvariumning bo'yi 140 sm, eni 110 sm, balandligi 75 sm. Suv sathi yuqoridan 5 sm pastda bo'lishi uchun akvariumga necha litr suv quyish kerak?

A) *1200* B) *1080* C) *1155* D) *1078*

62. $a = 4$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (\sin^2 3x + \cos^2 3x)dx$ integralni hisoblang.

A) 1 B) $2\sqrt{2}$ C) $\frac{\sqrt{2}-1}{3}$ D) $\sqrt{2}$

63. Rasmda $y = a + \frac{2}{bx+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $bc + ab^2 < 0$ B) $c - b > 0$ C) $b - c + a > 0$
D) $a^3 - b^2 < 0$

64. Teng yonli trapetsiyaning diagonali uning o'tkir burchagi bissektrisasidir. Trapetsiyaning asoslari uzunliklari 3 : 5 kabi nisbatda, perimetri esa 14 ga teng. Trapetsiyaning o'rta chizig'ini toping.

A) *4,5* B) *4* C) *6* D) *8*

65. $\log_{\frac{1}{5}} \log_{\frac{1}{4}} \frac{x+4}{2x-1} < 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan eng kichik butun sonni toping.

A) -5 B) -8 C) -10 D) *0*

66. a ning qanday qiymatida $(a-1)x^2 + (2a+2)x + a - 2 = 0$ kvadrat tenglama ikkita o'zaro teng ildizga ega bo'ladi?

A) 0 B) 0,5 C) 0,2 D) 1

67. Uzluksiz turdagi axborot ... deyiladi.

A) *analogli* B) *aralash* C) *diskretli* D) *foydali*

68. Guruhda 1000 ta o'quvchi bo'lib, ulardan 120 tasi qiz bola va 110 tasi o'g'il bola. Hisoblash bajarilgan sanoq sistemasida 222+222 amali natijasini aniqlang.

A) *1221* B) *52* C) *444* D) *1110*

69. ... - kompyuterga o'rnatilgan dasturiy ta'minotni o'chirish jarayonidir.

A) *Defragmentatsiya* B) *Arxivlash* C) *Deinstallyatsiya*
D) *Installyatsiya*

70. $A1=-3$, $A2=1$, $B1=9$, $B2=4$ bo'lsin. Natijasi -8,25 ga teng bo'ladigan formulani aniqlang.

A) *=СРЗНАЧ(A1:B2) *A1*
B) *=СУММ(-A1+B2;A2+B1)*
C) *=ЦЕЛОЕ(A1/B2) +A2-B1*
D) *=ЕСЛИ(A1+2>B1-1;B2;A2)*

71. Web brauzerda matnning ko'rinishi quyidagicha bo'lishi uchun uning HTML kodi qanday bo'lishi kerak?
Kvadrat tenglama $ax^2+bx+c=0$ ko'rinishida bo'ladi.

A) * <cite>Kvadrat tenglama ax ² +bx+c=0 ko'rinishida bo'ladi.</cite> *
B) * Kvadrat tenglama ax ² +bx+c=0 ko'rinishida bo'ladi. *
C) * Kvadrat tenglama ax² +bx+c=0 ko'rinishida bo'ladi. *
D) * Kvadrat tenglama ax ² +bx+c=0 ko'rinishida bo'ladi. *

72. Quyidagi dastur lavhasining har qanday a, b va c qiymatda ham ma'lumotlarni chiqarish protsedurasi izohiga mos keladigan javob chiqishi uchun * o'rniga yozilishi kerak bo'lgan operatorni aniqlang:

```
Readln(a,b,c); If a>b Then max:=a Else max:=b;
*
WriteLn('Berilgan uchta sondan kattasi= ',max);
```

A) *If c>b Then max:=c Else max:=b;* B) *max:=c;*
C) *If c>b Then max:=c;* D) *If c>max Then max:=c;*

124-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. $a=-1$ bo'lsa, $\int\limits_a^{a+1}(\sin^2 3x+\cos^2 3x)dx$ integralni hisoblang.

A) $2\sqrt{2}$ B) $\sqrt{2}$ C) $\frac{\sqrt{2}-1}{3}$ D) *1*

38. $\sqrt[3]{x^{\log_3 \sqrt[3]{x}}}>3$ tengsizlikning yechimi bo'lmaydigan eng katta va eng kichik natural sonlar yig'indisini toping.

A) *29* B) *30* C) *28* D) *27*

39. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandlik uzunligini toping.

A) $h_b=\frac{b}{2a}\sqrt{4b^2-a^2}$ B) $h_b=\frac{a}{b}\sqrt{4b^2-2a^2}$

C) $h_b=\frac{b}{a}\sqrt{4b^2-2a^2}$ D) $h_b=\frac{a}{2b}\sqrt{4b^2-a^2}$

40. Agar barcha x, y lar uchun $x^3+4x^2y+axy^2+3xy-bx^cy+7xy^2+dxy+y^2=x^3+y^2$ ayniyat bajarilsa, $|a+b+c|(a+b+c)$ ni toping. $(c>1)$

A) *3* B) -2 C) -4 D) -1

41. a sonining oxirgi raqami 1 va bu sonning o'nta natural bo'luvchisi bo'lsa, $10a$ sonining nechta natural bo'luvchisi bor? (1 va a ham kiradi).

A) *30* B) *40* C) *20* D) *50*

42. $\{1,2,3,4,5\}$ to'plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism-to'plamlarga ajratish mumkin?

A) *10* B) *16* C) *32* D) *5*

43. Agar x quyidagi tenglamani qanoatlantirsa, $\operatorname{tg} 4x$ ning barcha qiymatlari ko'paytmasini toping.
$2\cos^2 4x+\left(\sqrt{3}-2\right)\cos 4x-\sqrt{3}=0$

A) -1 B) *0* C) $\sqrt{3}$ D) *1*

44. Agar $\alpha=17^\circ$ va $\beta=150^\circ$ bo'lsa,
$\sin\alpha\cdot\sin(\beta-\alpha)+\sin^2\left(\frac{\beta}{2}-\alpha\right)$ ni hisoblang.

A) $\frac{2+\sqrt{3}}{4}$ B) 0,5 C) 0,25 D) $\frac{2-\sqrt{3}}{4}$

45. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki AD=13, DC=15 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar BD to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) *2* C) $\sqrt{2}$ D) *1*

46. Arifmetik progressiyani tashkil etuvchi hadlari
$\begin{cases} a_2^2=a_8 \\ a_6-a_3=36 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini qanoatlantirsa, a_2 ning musbat qiymatini toping.

A) *9* B) *10* C) *11* D) *8*

47. Prizmaning qirralari soni 60 ga teng. Uning yoqlari sonini toping.

A) *20* B) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* C) *60* D) *22*

48. Poyezd 3 minutda 6 kilometr masofani, motosikl 4 minutda 6 kilometr masofani bosib o'tdi. Motosiklchining tezligi poyezd tezligining necha foizini tashkil etadi?

A) *75%* B) *87%* C) *70%* D) *73%*

49. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(1;4)$, $C(2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) *4* B) $3\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{3}$ D) *3*

50. To'g'ri burchakli trapetsiyaning asoslari 15 va 5 ga teng. Unga ichki chizilgan aylana radiusini toping.

A) *4* B) *3,5* C) *3,75* D) *3*

51. Rasmda $y=f(x)$ funksiya grafigi berilgan. $y=f(x)$ funksiya ekstremum nuqtalari koordinatalari yig'indisini toping. $(x\in[-3;1])$



A) *-1* B) *-5* C) *-3* D) *-2*

52. Teng yonli trapetsiya diagonallari o'zaro perpendikular. Uning yuzi 25 ga teng bo'lsa, balandlikni toping.

A) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* B) *4* C) *6* D) *5*

53. $y=\log_7(\operatorname{arctg} 3x+\operatorname{arcctg} 3x)$ funksiyaning $x=\frac{1}{2}$ nuqtadagi ikkinchi tartibli hosilasining qiymatini toping.

A) $\log_7 2$ B) *0* C) *1* D) $-\log_7 2$

54. $4-x<\sqrt{6-x}$ tengsizlikning natural yechimlaridan eng katta va eng kichigining ayirmasini toping.

A) *4* B) *1* C) *6* D) *3*

55. Agar $2a^2-5ab+2b^2=0$ bo'lsa, a ni b orqali ifodalang.

A) $a=0,75b$; $a=4b$ B) $a=4b$; $a=0,5b$
C) $a=0,5b$; $a=2b$ D) $a=3b$; $a=2b$

56. $a=(0,2)^{\frac{1}{2}\log_5\sqrt{2}-\log_{25}2}$ bo'lsa, $\log_2 a$ ni hisoblang.

A) *0,25* B) *0,5* C) *1* D) $\log_2 5$

124-variant

7. $f(x) = 4x^2 + ax + 103$ kvadrat uchhad uchun $f(1) + f(4) + f(6) + f(7) - f(2) - f(3) - f(5) - f(8)$ ni hisoblang.

A) *1* B) *a ga bog'liq* C) *0* D) -1

58. R radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Piramida yon sirtining yuzining eng katta qiymatini toping.

A) R^2 B) $4R^2$ C) $6R^2$ D) $5R^2$

59. Rasmda $y = a + \dfrac{2}{bx + c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?



A) $a + b - c < 0$ B) $c(a - b) > 0$ C) $b(a - c) > 0$
D) $c^3 - a^{16} < 0$

60. $y = \ln x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = \ln(x - a) + b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi? Bunda, $x > a$, $x > 0$

A) $N(a; b)$ B) $N(-a; b)$ C) $N(a; -b)$ D) $N(b; a)$

61. $3^{2x} - 3^x = 702$ tenglamani yeching.

A) 2 B) 3 C) 5 D) 4

62. a va b natural sonlarning umumiy bo'luvchilari soni 4 ga teng bo'lsa, $a + 2b$ va b sonlarning umumiy bo'luvchilari nechta?

A) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* B) *2* C) *4* D) *1*

63. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1; 0)$, $B(1; y)$, $C(-8; y)$ va $D(-10; 0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *y ga bog'liq* B) *1* C) $\sqrt{2}$ D) *2*

64. Agar $\log_{12} 27 = a$ bo'lsa, $\log_6 16$ ni a orqali ifodalang.

A) $\dfrac{3 - a}{a + 3}$ B) $\dfrac{4(3 - a)}{3 + a}$ C) $\dfrac{3 + a}{3 - a}$ D) $\dfrac{4a - 3}{3 + a}$

65. $\dfrac{\operatorname{tg}^4 2\alpha + 1}{\operatorname{tg}^2 2\alpha + \operatorname{ctg}^2 2\alpha} - \dfrac{1}{\cos^2 2\alpha}$ ni soddalashtiring.

A) -1 B) $-\operatorname{tg}^2 2\alpha$ C) 0 D) $\operatorname{tg}^2 2\alpha$

66. $a = -2$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{\ln 2 - 1}{2}$ B) *1* C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

67. Quyidagilardan qaysi biri axborot ko'rinishi hisoblanadi?

A) *tushunarli, ishonchli* B) *grafikli, tovushli*
C) *uzlukli, uzluksiz* D) *karrali, dolzarb*

68. 31322, 323 butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar raqamlarining yig'indisini hisoblang.

A) *201* B) *34* C) *103* D) *31*

9. Operatsion tizim (sistema) lar qaysi bandda noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) *UNIX, PS/2* B) *UNIX, MS DOS* C) *Windows, Linux*
D) *DOPPIX, Corel Draw*

70. *A1=-9, A2=-1, B1=7, B2=5* bo'lsin. Natijasi 5 ga teng bo'ladigan formulani aniqlang.

A) *=ЕСЛИ(A1*B2<0;A2+5;B2+9)*
B) *=МАКС(ABS(A1*A2);ABS(B1*B2))*
C) *=ЕСЛИ(A1*B2>=0;A2+9;B2+5)*
D) *=МИН(ABS(A1);B2;ABS(B1*A2))*

71. <IMG SRC= "mypic.jpg" WIDTH=100 HEIGHT=50> HTML hujjat fragmentining web-brauzerda aks ettirilgan natijasini ko'rsating.

A) *mypic.jpg rasmining haqiqiy o'lchamini hisobga olmagan holda, 50x50 piksellar o'lchamida web-sahifaga joylashtiriladi*
B) *mypic.jpg rasmining haqiqiy o'lchamini hisobga olmagan holda, 100x50 piksellar o'lchamida web-sahifaga joylashtiriladi*
C) *mypic.jpg rasm atrofida chapdan, o'ngdan, yuqori va pastki qismidan 100 piksel o'lchamda bo'sh joy qoldirib web-sahifaga joylashtiradi*
D) *mypic.jpg rasm atrofida ko'rsatilgan o'lchamlarda ramka hosil qilib web-sahifaga joylashtiradi*

72. Paskal tilida 63 ta elementdan iborat ikki o'lchovli massiv to'g'ri tavsiflangan javobni ko'rsating.

A) *Var M: array [3..11,2..8] of char;*
B) *Var B: array [5..10,3..10] of string;*
C) *Var M: array [-1..7,4..12] of boolean;*
D) *Var C: array[3..65] of char;*

125-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. To'g'ri burchakli uchburchak tomonlariga yasalgan kvadratlar yuzlarining yigindisi 98 ga teng. Gipotenuza uzunligini toping.

A) 14 B) 7 C) 9 D) 6

38. $a = (0,2)^{\frac{1}{2}\log_5 16 - \log_{25} 2^8}$ bo'lsa, $\log_2 a$ ni hisoblang.

A) 0,5 B) 1 C) 2 D) $\log_2 5$

39. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-\frac{1}{2};-4)$, $C(-1;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) 2 B) $2\sqrt{3}$ C) 3 D) $2\sqrt{2}$

40. Rasmda $y = a + \frac{b}{x+c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli?



A) $a - b + c > 0$ B) $bc - a^5 > 0$ C) $c^2(a+b) > 0$
D) $a(b^4 + c^4) > 0$

41. Kompyuter xotirasiga virus tushdi. Birinchi sekundda u xotiraning yarmini, ikkinchi sekundda qolganining uchdan birini, uchinchi sekundda qolganining to'rtdan birini, to'rtinchi sekundda qolganining beshdan bir qismini ishdan chiqardi. Shu paytda xotiraning qancha qismiga virus tushmagan?

A) $\frac{1}{5}$ B) $\frac{1}{12}$ C) $\frac{1}{10}$ D) $\frac{1}{6}$

42. O'zaro teng bo'lmagan x va y sonlari $x^2 + 26y = y^2 + 26x$ tenglikni qanoatlantirsa, $x + y$ ni toping.

A) 0 B) 16 C) 26 D) 24

43. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arifmetik progressiyani tashkil qiladi. $2a_1 + a_5$ ni toping.

A) 43 B) 41 C) 39 D) 34

44. $\sqrt{2x+1} \le \sqrt{x^3 - 4x^2 + x + 5}$ tengsizlikning nomusbat butun yechimlari nechta?

A) 0 B) cheksiz ko'p C) 2 D) 1

45. $y = 3\sin(2x + \frac{\pi}{4})$ funksiya nechta butun qiymatlarni qabul qiladi?

A) 0 B) cheksiz ko'p C) 6 D) 7

46. [2; 200] kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo'linganda qoldiq 1 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 1 B) 0 C) 3 D) 2

47. $y = 7cos5x - 5cos7x$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $-70cosx \cdot sin6x$ B) $70sinx \cdot cos6x$ C) $70cosx \cdot cos6x$
D) $70sinx \cdot sin6x$

48. Hisoblang: $\cos 40^\circ \cdot \cos 20^\circ \cdot \cos 100^\circ$.

A) $\frac{\sqrt{3}}{4}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{8}$ C) $-\frac{1}{8}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{4}$

49. Agar barcha x, y lar uchun $x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^3$ ayniyat bajarilsa, $a - b - c + d$ ni toping. $(c > 1)$

A) 4 B) 2 C) -16 D) -10

50. Hisoblang: $(\sqrt{7}+1) \cdot \left(\frac{12}{\sqrt{7}-1} \cdot \frac{18}{\sqrt{7}+5} - 4\sqrt{7}\right)$

A) 20 B) 15 C) 24 D) $\sqrt{7}$

51. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(0;y)$, $C(2;y)$ va $D(4;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) 1 B) y ga bog'liq C) 2 D) $\sqrt{2}$

52. $y = \cos 2x$; $y = 0$; $x = -\frac{\pi}{6}$; $x = \frac{\pi}{3}$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) 1 B) 0,5 C) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{4}$

53. $\frac{1}{\sqrt{2}}$ radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchak 15° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 1 B) $\sqrt{3}$ C) 2 D) $\sqrt{2}$

54. Har qanday $x \in (x_1, x_2)$ uchun $y = f(x)$ funksiya hosilasi manfiy bo'lsin. (x_1, x_2) oraliqqa tegishli ixtiyoriy a va b $(a > b)$ uchun qanday tengsizlik o'rinli?

A) $f(a) < f(b)$ B) $f(a) < f(b) < 0$ C) $f(b) < f(a)$
D) $f(a) \ge f(b)$

55. $\begin{cases} y^2 + xy = 12 \\ x^2 + xy = 4 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A) $(-1;-3)$ va $(1;3)$ B) $(1;3)$ C) $(1;3)$ va $(3;1)$
D) $(-1;-3)$



56. Rasmda AB katta aylana diametri, O_1 katta aylana markazi O_2 va O_3 kichik aylana markazlari bo'lib, ular uchun $AO_1 : O_1O_2 = O_2O_3 : O_3B$ tenglik o'rinli. S_1 va S_2 sohalar perimetrlari yig'indisi 32π ga teng bo'lsa, katta va kichik aylanalar radiuslari ayirmasini toping.

A) 3 B) 6 C) 2 D) 4

57. $k \in N$ da $S_k = x^k + y^k$ darajali yig'indi, $\sigma_1 = x + y$, $\sigma_2 = xy$ bo'lsa, u holda quyidagi qaysi munosabat doim o'rinli?

A) $S_3 = S_2\sigma_1 - S_1\sigma_2$ B) $S_3 = S_1\sigma_1 - S_2\sigma_2$
C) $S_3 = S_2\sigma_2 + S_1\sigma_1$ D) $S_3 = S_2\sigma_1 + S_1\sigma_2$

58. Agar $x^2 + 36y^2 = 13xy$ bo'lsa, $\frac{x}{y}$ nisbatning eng katta qiymatini toping.

A) 4 B) 9 C) 13 D) 5

59. Qaysi jism(lar)ning simmetriya tekisliklari cheksiz sonda?
1) kub; 2) prizma; 3) konus
A) *3* B) *2* C) *1* D) *2, 3*

60. $\{x|x \in N, 6 \leq x^2 \leq 43\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?
A) *16* B) *32* C) *8* D) *5*

61. $5 \cdot 0,2^{\lg x} > 0,04^{\lg 2}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha natural sonlar yig'indisini toping.
A) *760* B) *820* C) *780* D) *380*

62. $a = 4$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (ln(\sin^2 3x + \cos^2 3x) + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.
A) 1 B) $\frac{\ln 2 - 1}{3}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

63. Asoslarining radiuslari 2 va 3 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.
A) $\sqrt{19}$ B) $\sqrt{13}$ C) $\sqrt{6\frac{1}{3}}$ D) $\sqrt{6\frac{2}{3}}$

64. (x, y) sonlar juftligi $\begin{cases} \frac{5x+2y}{3} - \frac{25x+11y}{4} = -3 \\ 5x + 7y = 8 \end{cases}$ sistemaning yechimi bo'lsa, $x^2 + y^2$ ni toping.
A) *1,04* B) *4* C) *0,4* D) *1,4*

65. $y = \ln(\sin^2 3x + \cos^2 3x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping
A) $-\ln 2$ B) *1* C) $\ln 2$ D) *0*

66. Qavariq $ABCDEF$ oltiburchakda ichki burchaklar o'zaro teng. Agar $AB = 3$, $BC = 4$, $CD = 5$, $EF = 5$ bo'lsa, DE tomon uzunligini toping.
A) *3* B) *5* C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) *2*

67. ... inson tomonidan axborotni izlash, yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullari va vositalari deb yuritiladi.
A) *Axborot texnologiyasi* B) *Axborot xavfsizligi*
C) *Axborotni kodlash* D) *Elektromagnit maydon*

68. $5C9$, $6AC$ butun sonlarni barchasini yozish mumkin bo'lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar raqamlarining yig'indisini hisoblang.
A) *42* B) *39* C) *3C* D) *46*

69. Operatsion tizim (sistema) lar qaysi bandda noto'g'ri ko'rsatilgan?
A) *Windows, Linux* B) *UNIX, MS DOS*
C) *DOPPIX, Corel Draw* D) *UNIX, PS/2*

70. MS Excel. A1=12; A2=18; A3=-12; A4=-17 ga teng bo'lsa, ...(A1;A3-A2;A4)=-35 tenglik o'rinli bo'lishi uchun nuqtalar o'rnida qaysi funksiya qo'llangan bo'lishi kerak?
A) *СУММ* B) *МИН* C) *МАКС* D) *СРЗНАЧ*

71. Qaysi dastur orqali Web-sahifalarni ko'rish mumkin?
A) *muharrir* B) *utilit* C) *drayver* D) *brauzer*

72. Paskal tilida quyidagi dastur lavhasi takrorlanish operatoridagi takrorlanishlar sonini aniqlang:
I:=0; While ((I>0) and (I<=100)) do begin I:=I+11;
P:=I*I;end;
A) *10 marta* B) *11 marta* C) *0 marta* D) *9 marta*

126-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. $y = \log_7(\operatorname{arctg} 3x + \operatorname{arcctg} 3x)$ funksiyaning $x = \frac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) $\log_7 2$ B) $-\log_7 2$ C) *0* D) *1*

38. Rasmda $y = a + \frac{2}{bx + c}$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagilardan qaysi biri doim o'rinli?



A) $abc > 0$ B) $c^2 - b^2 > 0$ C) $a^2 - b^2c > 0$
D) $a^3 - b^3 > 0$

39. ABC uchburchakning har bir tomoni chizmada ko'rsatilgandek o'z uzunligiga teng uzunlikda davom ettirilgan. Agar $A'B'C'$ uchburchak yuzasi 7 ga teng bo'lsa, ABC uchburchak yuzasini toping.



A) *1* B) *3* C) *4* D) *2*

40. $60°$ ga teng bo'lgan A burchakka aylana ichki chizilgan. Bu aylana burchak tomonlariga B va C nuqtalarda urinadi. Agar BC=3 bo'lsa, $AB + AC$ ni toping.

A) *3* B) *4* C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) *6*

41. $x = -y$, $z = 2$ bo'lsa, $\dfrac{x^3 + y^3 + z^3 - 3xyz}{x^2 + y^2 + z^2 - xy - xz - yz}$ ifodaning qiymatini toping.

A) *2* *0* C) *1* D) -2

42. $\sqrt{3}\left(4^x + 2^{2x-1}\right) < 3^x + 3^{x+1}$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty; -1) \cup (-1; 0) \cup (0; 1) \cup (1; +\infty)$
B) $(-\infty; 1,5)$
C) $(0; 2)$
D) $(-\infty; 0) \cup (0; 3)$

43. Agar $\operatorname{tg}\frac{x}{2} = 2$ bo'lsa, $\dfrac{9\cos\left(x - \frac{\pi}{2}\right)}{3 + \sin\left(\frac{3\pi}{2} - x\right)}$ ni hisoblang.

A) *1* B) *21* C) *2* D) *4*

44. $y = \sin x$ funksiya grafigi berilgan bo'lib, uni parallel ko'chirish yordamida $y = \sin(x + a) - b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko'chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko'chadi?

A) $N(-a; b)$ B) $N(-a; -b)$ C) $N(a; b)$ D) $N(b; a)$

45. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandlik uzunligini toping.

A) $h_b = \frac{b}{a}\sqrt{4b^2 - 2a^2}$ B) $h_b = \frac{b}{2a}\sqrt{4b^2 - a^2}$
C) $h_b = \frac{a}{2b}\sqrt{4b^2 - a^2}$ D) $h_b = \frac{a}{b}\sqrt{4b^2 - 2a^2}$

46. $ABCD$ parallelogrammda CD tomonni D uchidan boshlab hisoblaganda 1:2 nisbatda bo'luvchi AN to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Agar ABC uchburchakning yuzi 12 ga teng bo'lsa, ANC uchburchakning yuzini toping.

A) *8* B) $4\sqrt{2}$ C) *4* D) *6*

47. Parallepipedning asoslari tomoni 4 ga teng kvadratlardan, barcha yon yoqlari romblardan iborat. Yuqori asosining uchlaridan biri ostki asosining barcha uchlaridan baravar uzoqlikda joylashgan. Parallelepipedning hajmini toping.

A) $16\sqrt{2}$ B) $8\sqrt{2}$ C) $32\sqrt{2}$ D) *8*

48. Agar barcha x, y lar uchun $x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^2$ ayniyat bajarilsa, $a + b - c$ ni toping. $(c > 1)$

A) -4 B) -5 C) *3* D) -2

49. $a = 5$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (\sin^2 2x + \cos^2 2x)dx$ integralni hisoblang.

A) *1* B) $\dfrac{\sqrt{2} - 1}{2}$ C) $\sqrt{2}$ D) $2\sqrt{2}$

50. Rasmda $y = f'(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $f'(x) = 0$ tenglama yechimlari o'rta arifmetigini toping. $(x \in [-3; 3])$



A) 1,5 B) 2 C) 1 D) 0

51. Agar $\begin{cases} x^2 + (y + a)^2 - 1 = 0 \\ x^2 + y = -1 \end{cases}$ tenglamalar sistemasi yechimga ega bo'lmasa, a ning eng katta manfiy butun qiymatini toping.

A) *-3* B) *-1* C) *bir qiymatli aniqlanmaydi* D) *-2*

52. Hisoblang: $\cos 10° \cdot \cos 50° \cdot \cos 70°$.

A) $\frac{\sqrt{3}}{8}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ D) $\frac{1}{8}$

53. A va B to'plamlarning birlashmasi qanday belgilanadi?

A) $A \triangle B$ B) $A \cap B$ C) $A \cup B$ D) $A + B$

126-variant

. $\sqrt[3]{x^{\log_3 \sqrt[3]{x}}} > 3$ tengsizlikning eng kichik natural yechimini toping.

A) 9 B) 27 C) 1 D) 28

. Kichkina koala daraxt barglarini 10 soatda yeb tugatadi, otasi ham, onasi ham undan 2 marta tez yeydi. Ular bitta daraxtni necha soatda yeb tugatadi?

A) 4 B) 2 C) 5 D) 3

. $\{x|x \in N, 6 \le x^2 \le 40\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) 32 B)16 C) 8 D) 5

. $a = 4$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{\ln 2-1}{2}$ B) 1 C) $2\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$

. [50; 300] kesmada 3 ga bo'linganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'linganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'linganda qoldiq 3 ga va 6 ga bo'linganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 4 B) 5 C) 3 D) 2

. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;5)$, $C(-2;0)$ Uchburchak yuzini toping.

A) $4\sqrt{2}$ B) 4 C) 5 D) $3\sqrt{3}$

0. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-2;0)$, $C(0;-2)$. O'tkir burchaklar medianalari orasidagi o'tmas burchak kosinusini toping.

A) $-\frac{4}{7}$ B) $-\frac{3}{5}$ C) $-\frac{4}{5}$ D) $-\frac{5}{7}$

1. $y = |x| + |x-4|$ va $y = 8$ chiziqlar bilan chegaralangan soha yuzini toping.

A) 24 B) 16 C) 10,5 D) 12

2. $\sqrt{3}$ radiusli sferaga muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Uchidagi yassi burchak 45° ga teng bo'lsa, piramida yon sirtining yuzini toping.

A) 15 B) 14 C) 12 D) $9\sqrt{2}$

3. Hisoblang: $5^{\log_{25} 49} + 10^{1-\log_{0,0(9)} 5} - 2 \cdot 3^{\log_{0,(3)} \frac{1}{30}}$

A) 0 B) 1 C) -3 D) 3

4. Tenglamani yeching:
$2^{x-2} + 2^{x-3} + 2^{x-4} = 224$

A) 7 B) 9 C) 11 D) 10

5. Geometrik progressiya n-hadi $b_n = \frac{\sqrt{3}}{4} \cdot 5^{n+3}$ ga teng.
Progressiyaning maxrajini toping.

A) -5 B) 0,2 C) 0,5 D) 5

6. $|x^2 - 9x + 15| = 7$ tenglama yechimlari ayirmasining modulini toping

A) 8 B) 0 C) 7 D) 9

7. 160 bayt necha bitga teng?

A) 1640 B) 1600 C) 1320 D) 1280

8. Rim sanoq sistemasida to'g'ri tenglikni aniqlang.

A) $CXII : XXVIII = V$ B) $IL \cdot VLII = MMCCCIII$
C) $CVLII + XXVIII = CLXXIV$
D) $CCCXVII-VLI = CCLXX$

9. ... – bu kompyuter va uning qurilmalari ishini boshqaruvchi, foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etuvchi dasturdir.

A) Utilitlar B) Drayverlar C) Antiviruslar
D) Operatsion tizim (sistema)

70. $A1$=−3, $B1$=6, $B2$=3 bo'lsin. Quyidagi formula natijasi 2 ga teng bo'lishi uchun $A2$ katakka kiritilishi kerak bo'lgan qiymatni aniqlang.
=ЕСЛИ(И($A1+B2<=A2*B1$;$A1*B1<>0$); $A1+B2+B1-A2$;$A1*B1+B2+A2$)

A) 4 B) 1 C) 6 D) 2

71. Rasm joylashtirish tegi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni tanlang.

A) <img scr="fayl nomi"> B) <img src="fayl nomi">
C) <a href="fayl nomi"> D) <frame src="fayl nomi">

72. Quyidagi to'plamni Paskal tilida yozilishini aniqlang:
$X^2 + Y^2 < R^2$, $y \ge 0$, $x < a$

A) (sqr(x)+sqr(y)<sqr(r)) or (x<a) or (y>=0)
B) (x*x+sqr(y)<r*r) and (x<a) and Not(y<0)
C) (x*x+sqr(y)<sqr(r)) and (x<=a) or (y>0)
D) (X*X+Y*Y)<R*R) and (y>=0) and Not(x>A)

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. $ABCD$ tetraedrning D uchidagi barcha yassi burchaklar to‘g‘ri. Shu tetraedrga kub shunday ichki chizilganki, kubning bitta uchi D nuqtada, unga qarama-qarshi uchi esa ABC yoqda yotibdi. Agar DA=4, DB=6 va DC = 10 bo‘lsa, kub qirrasining uzunligini toping.

A) $\frac{60}{31}$ $\frac{17}{19}$ C) $2\sqrt{2}$ D) $\frac{23}{12}$

127-variant

38. $f(x) = 4x^2 + ax + 103$ kvadrat uchhad uchun $f(1) + f(4) + f(6) + f(7) - f(2) - f(3) - f(5) - f(8)$ ni hisoblang.

A) 0 B) -1 C) *1* D) *a ga bog'liq*

39. Beshta a_1, a_2, a_3, a_4, a_5 tub sonlar ayirmasi 6 ga teng bo'lgan arifmetik progressiyani tashkil qiladi. $2a_1 + a_5$ ni toping.

A) *39* B) *41* C) *43* D) *34*

40. $y = x^3$; $y = 0$; $x = -3$; $x = 1$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning yuzini toping.

A) *20,5* B) *21* C) *10,75* D) *24*

41. $(x^2 - 1)\sqrt{6 - x - x^2} \leq 0$ tengsizlikning butun yechimlari nechta?

A) *3* B) *0* C) *5* D) *4*

42. ABC uchburchakning A ichki burchagidan o'tkazilgan bissektrisasi BC tomonni D nuqtada kesib o'tadi. Bunda $AD = BD$, $AB = 9$ va $AC = 16$. Uchburchakning BC tomonini toping.

A) *24* B) *20* C) *21* D) *18*

43. $\dfrac{x+6}{x(x-7)} - \dfrac{4}{(7-x)^2} = \dfrac{1}{x-7}$ tenglamani yeching.

A) 4, 2 B) 42 C) 21 D) 2, 1

44. $\{x | x \in N, -3 \leq x \leq 5\}$ to'plamning nechta qism-to'plamlari mavjud?

A) *16* B) *32* C) *9* D) *5*

45. Prizmaning qirralari soni 72 ga teng. Uning yoqlari sonini toping.

A) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* B) *72* C) *26* D) *24*

46. Hisoblang: $\log_2 \left(\dfrac{1+\sqrt{7}}{\sqrt{4+\sqrt{7}}} - \dfrac{1-\sqrt{5}}{\sqrt{3-\sqrt{5}}} \right)$

A) *-1,2* B) *1,5* C) *1* D) *0*

47. $y = \log_7(\sin^2 3x + \cos^2 3x)$ funksiyaning $x = \dfrac{1}{2}$ nuqtadagi hosilasining qiymatini toping.

A) $\log_7 2$ B) *1* C) *0* D) $-\log_7 2$

48. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki AD=23, DC=25 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar $\cup D$ to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.

A) *1* B) $\sqrt{2}$ C) *2* D) $\sqrt{3}$

49. Agar $x^2 + 20y^2 = 9xy$ bo'lsa, $\dfrac{x}{y}$ nisbatning eng katta qiymatini toping.

A) *9* B) *3* C) *5* D) *2*

50. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(1;0)$, $B(1;y)$, $C(4;y)$ va $D(6;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) *2* B) *y ga bog'liq* C) $\sqrt{2}$ D) *1*

51. Agar barcha x, y lar uchun $x^3 + 4x^2y + axy^2 + 3xy - bx^cy + 7xy^2 + dxy + y^2 = x^3 + y^2$ ayniyat bajarilsa, a ni toping. $(c > 1)$

A) *4* B) -7 C) *2* D) -3

52. Hisoblang: $\cos 7,5^\circ \cdot \cos 52,5^\circ \cdot \cos 67,5^\circ$

A) $\dfrac{\sqrt{\sqrt{3}-\sqrt{2}}}{8}$

B) $\dfrac{\sqrt{2+\sqrt{2}}}{8}$

C) $\dfrac{\sqrt{2-\sqrt{3}}}{8}$

D) $\dfrac{\sqrt{2+\sqrt{3}}}{8}$

53. $y = -6sin^2x + \dfrac{3}{4}cos^2 2x + 2\dfrac{1}{4}$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli nomusbat butun sonlar nechta?

A) *5 ta* B) *2 ta* C) *3 ta* D) *4 ta*

54. $a = -2$ bo'lsa, $\int_a^{a+1} (ln(\sin^2 2x + \cos^2 2x) + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.

A) $\frac{\ln 2 - 1}{2}$ B) *1* C) $\sqrt{2}$ D) $2\sqrt{2}$

55. Velosipedchi tepalikka 12 km/soat tezlik bilan chiqdi. Chiqqan yo'li orqali 20 km/soat tezlik bilan pastga tushdi va chiqishdagiga qaraganda 16 minut kamroq vaqt sarfladi. Yo'lning uzunligini (km) toping.

A) *12* B) *8* C) *10* D) *14*

56. Elementlar soniga bog'liq holda to'plamlar qanday to'plamlarga ajratiladi?

A) *bo'sh va bo'sh emas to'plamlarga*
B) *kesishadigan va kesishmaydigan to'plamlarga*
C) *ikki va bir necha elementli to'plamlarga*
D) *chekli va cheksiz to'plamlarga*

57. Ifodani soddalashtiring: $\sin 6\alpha + 2\sin^2 3\alpha - 1$

A) $\sqrt{2}\cos(6\alpha - 45^\circ)$
B) $-\sqrt{2}\sin(3\alpha - 45^\circ)$
C) $-\sqrt{2}\cos(3\alpha - 45^\circ)$
D) $\sqrt{2}\sin(6\alpha - 45^\circ)$

58. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;-1)$, $C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) *2* B) $\sqrt{3}$ C) $\sqrt{2}$ D) *1*

59. $a = -b$, $c = 2$ bo'lsa, $\dfrac{c(a-b)^3 + a(b-c)^3 + b(c-a)^3}{c^2(b-a) + a^2(c-b) + b^2(a-c)}$ ifodaning qiymatini toping.

A) *2* B) -2 C) *0* D) *1*

60. $\dfrac{1}{|x+1|-1} \geq \dfrac{2}{|x+1|-2}$ tengsizlikning eng katta manfiy butun yechimini toping.

A) *-2* B) *-1* C) *-3* D) *-4*

61. [0; 500] kesmada 3 ga bo'linganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'linganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'linganda qoldiq 3 ga va 6 ga bo'linganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 6 B) *8* C) *5* D) *7*

62. 60° ga teng bo'lgan A burchakka aylana ichki chizilgan. Bu aylana burchak tomonlariga B va C nuqtalarda urinadi. Agar BC=3 bo'lsa, AC ni toping.

A) *1* B) *2* C) *bir qiymatli aniqlab bo'lmaydi* D) *3*

128-variant

MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37. Teng yonli ABC uchburchakning AC asosida D nuqta shunday olinganki AD=5, DC=7 tengliklar bajariladi. ABD va DBC uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar BD to'g'ri chiziqqa mos ravishda M va N nuqtalarda urinadilar. MN kesma uzunligini toping.

A) $\sqrt{3}$ B) 2 C) $\sqrt{2}$ D) 1

38. ABC uchburchakning BC tomoniga AD to'g'ri chiziq shunday o'tkazilganki, natijada AC asosli teng yonli ADC uchburchak hosil bo'lgan. Agar ABC va ABD uchburchaklar perimetrlari mos ravishda 51 va 40 ga teng bo'lsa, AC tomon uzunligini toping.

A) 11 B) 14 C) 17 D) 12

39. ABC o'tkir burchakli uchburchak berilgan. Uchburchakning BC tomonini C uchidan boshlab hisoblanganda 2:3 nisbatda bo'luvchi AN to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Agar ANC uchburchakning yuzi 6 ga teng bo'lsa, ABC uchburchakning yuzini toping.

A) 12 B) 13 C) 16 D) 15

40. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo'lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushirilgan balandlik uzunligini toping.

A) $h_b = \frac{a}{2b}\sqrt{4b^2-a^2}$ B) $h_b = \frac{b}{a}\sqrt{4b^2-2a^2}$

C) $h_b = \frac{b}{2a}\sqrt{4b^2-a^2}$ D) $h_b = \frac{a}{b}\sqrt{4b^2-2a^2}$

41. Asoslarining radiuslari 2 va 5 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.

A) $\sqrt{29}$ B) $\sqrt{13}$ C) $\sqrt{13\frac{2}{3}}$ D) 7

42. Sharga asosining tomoni $4\sqrt{2}$ ga, balandligi 4 ga teng bo'lgan muntazam to'rtburchakli piramida ichki chizilgan. Shar radiusini toping.

A) 3,2 B) 3,5 C) 4,2 D) 4

43. $y = \log_7(\sin^2 x + \cos^2 x)$ funksiyaning $x = \frac{2016\pi}{6}$ nuqtadagi qiymatini hisoblang.

A) $\log_7 2$ B) $-\log_7 2$ C) 1 D) 0

44. Uchburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(-1;5)$, $C(-2;0)$. Uchburchak yuzini toping.

A) $3\sqrt{3}$ B) 4 C) $4\sqrt{2}$ D) 5

45. Hisoblang:
$\left(\frac{2\sqrt{15}-4}{\sqrt{15}+\sqrt{13}} + \frac{2\sqrt{13}+2}{\sqrt{15}-\sqrt{13}} + \sqrt{15} + 11\sqrt{13}\right)\cdot(2-\sqrt{13})$

A) -2310 B) -126 C) -42 D) 13

46. $x^{x^2-x-6} = 1$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping $(x > 0)$.

A) $\emptyset$ B) 3 C) -6 D) 6

47. $\sqrt{x+3} > x+1$ tengsizlikning butun yechimlari nechta?

A) 2 B) 3 C) 5 D) 4

48. [50; 150] kesmada 3 ga bo'linganda qoldiq 1 ga, 4 ga bo'linganda qoldiq 2 ga, 5 ga bo'linganda qoldiq 3 ga va 6 bo'linganda qoldiq 4 ga teng bo'ladigan natural sonlar nechta?

A) 2 B) 3 C) 1 D) 0

49. Agar $f(x) = 11^x \cdot 7x$ bo'lsa, $f'(x) = 0$ tenglamani yeching.

A) $\log_{11} e$ B) 0 C) $\ln 11$ D) $-\log_{11} e$

50. $y > 0$ bo'lsin. To'rtburchakning uchlari to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasida quyidagicha berilgan: $A(0;0)$, $B(0;y)$, $C(9;y)$ va $D(11;0)$. To'rtburchak diagonallarining o'rtalari orasidagi masofani toping.

A) $\sqrt{2}$ B) 2 C) 1 D) y ga bog'liq

51. $\int \left(x^2 + \sqrt[3]{x} - 7\right) dx$ ni hisoblang.

